

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI
MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI
YO'NALISHI bitiruvchisi VAFOYEV SHUHRATNING**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: O'zbekistonda ikki palatali parlament: shakllanishi va
rivojlanishi**

Ilmiy rahbar: M.Janobilova

“Milliy g’oya, huquq va ma’naviyat asoslari”
kafedra yig’ilishida muhokama etilib,
himoyaga tavsiya etilgan
“_____” №____ sonli bayonnoma
Kafedra mudiri_____dots. Raupov S.S.

BUXORO - 2015

“Миллий гоя, ҳуқуқ ва маънавият асослари” кафедрасининг

1-сон баённомасидан

К Ў Ч И Р М А

29.08.2014.

Қатнашдилар:

Кафедра мудири: т.ф.н., доц. С.С.Раупов

Доцентлар: ю.ф.н. доц. Ў.С. Очилов, ф.ф.н., доц. Н.Н.Тешаев, доц. Р.Э. Қиличев, с.ф.н., доц. А.А.Болтаев, ю.ф.н. доц. М.З.Эргашева

Катта ўқитувчилар: М.К.Орипова, Ў.Р.Қурбонов, М.К. Жанобилова, Ф.Ш.Абдуллаева, У.Б. Собиров, И.Х. Шоев, А.Қ. Широшов

Ўқитувчилар: Ш.Н.Аминов, Н.Б.Махмудова, Д.Х. Қодиров, Ш.Ш.Шаропов, Д.Қ.Сайфуллаева Н.О.Жўраева, А.Х.Болтаев, С.С.Самадова, Ш.К.Махмудов.

КУН ТАРТИБИ

5. Битирув малакавий иш мавзуларини тасдиқлаш тўғрисида.

Кафедра йиғилиши қарор қилади

1. “4” Б гуруҳ талабаси Вафоев Шухратнинг битирув малакавий иши мавзуси « Ўзбекистонда икки палатали парламент:шаклланиши ва ривожланиши.» деб тасдиқлансин.

2. Илмий раҳбар қилиб катта ўқитувчи **Жанабилова М** тасдиқлансин.


Кафедра мудири:  **доц. Раупов С.С.**

Котиба:


Жўраева Н.О.

Кафедра йиғилишида тасдиқланган

(Баённома №1, 2014 й. 29 август)

Кафедра мудир  т.ф.н.доц. Раупов С.С

“Миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқук” таълим йўналиши талабаси
Вафоев Шухратнинг « Ўзбекистонда икки палатали парламент:шаклланиши ва
ривожланиши» мавзусидаги битирув-малакавий ишини амалга ошириш
режаси

№	Топшириқнинг мазмуни	Бажарилиши муддати	Масъул	Изоҳ
1	« Ўзбекистонда икки палатали парламент:шаклланиши ва ривожланиши » мавзусининг тахминий режасини тузиш	10.09.14 13.09.14	Катта ўқит. Жанобилова М.Қ Вафоев Ш	 
2	Танланган мавзу юзасидан чоп этилган асосий адабиётларни ўрганиш	14.09.14 25.09.14	Вафоев Ш	
3	Режага қўйилган масалаларга оид материалларни туркумлаш	10.09.14 19.10.14	Вафоев Ш	
4	Битирув малакавий ишнинг кириш қисмини ёзиш	21.10.14 30.12.14	Вафоев Ш	
5	Битирув малакавий ишнинг биринчи ва бобини ёзиш	12.01.15 10.02.15	Вафоев Ш	
6	Битирув малакавий ишнинг иккинчи бобини ёзиш	15.02.15 20.02.15	Вафоев Ш	
7	13- сон Умумий ўрта мактабнинг 6-7-8-синфида ўтиладиган “Миллий истиқлол ғояси ва маънавият асослари” ва «Конституциявий ҳуқук» фанларидан битирув малакавий иши материалларидан фойдаланиш имкониятларини ўрганиш ва тажрибадан ўтказиш	23.02.15 29.04.15	Вафоев Ш	
8	Битирув малакавий ишнинг муҳокамаси тайёрлаш ва биринчи вариантини илмий раҳбар кўришга ҳавола этиш	14.03.15 2.04.15	Вафоев Ш	
9	Битирув малакавий ишнинг якуний вариантини тайёрлаб кафедра ҳимоя олди муҳокамаси	18.04.15 21.04.15	Вафоев Ш	

Илмий раҳбар:



Катта ўқит. Жанобилова М.Қ

Битирувчи талаба:



Вафоев Ш

Buxoro Davlat Universiteti Ijtimoiy – Iqtisodiy fakulteti
“Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi” yo`nalishi bitiruvchisi
Vafojev Shuhratning “O`zbekistonda ikki palatali parlament : shakllanishi
va rivojlanishi” mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

Tavsiyanoma

Vafojev Shuhratning “O`zbekistonda ikki palatali parlament : shakllanishi va rivojlanishi” mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to`rt qism , xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va huquqiy normativ hujjatlarga tayangan holda Prezidentimiz Islom Karimov asarlaridan ham unumli foydalangan.

Bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda ilmiy – nazariy asoslar, qonunchilik materiallardan foydalanilgan .

Ish tugallangan , ravon tilda yozilgan bo`lib , ish mazmuni , hajmi va shakli bitiruv ishlari oldiga qo`yiladigan talablarga javob beradi.

Bitiruv malakaviy ishni ijobiy baholab , uni tavsiyaga loyiq deb hisoblayman.

Ilmiy rahbar :



Katta o`qituvchi Janabilova M.Q

**“Миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқуқ таълими” кафедраси
йиғилиши баённомасидан**

К Ў Ч И Р М А

Баённома 8 сон

12 май 2015 йил

Қатнашдилар:

Кафедра мудири: т.ф.н., доц. С.С.Раупов
Доцентлар: ю.ф.н. доц. Ў.С. Очилов, ф.ф.н., доц. Н.Н.Тешаев, доц. Р.Э. Қиличев, с.ф.н., доц. А.А.Болтаев
Катта ўқитувчилар: М.К.Орипова, Ў.Р.Қурбонов, М.К. Жанобилова, Ф.Ш.Абдуллаева, У.Б. Собиров, И.Х. Шоев, А.Қ. Ширинов
Ўқитувчилар: Ш.Н.Аминов, Н.Б.Махмудова, Д.Х. Қодиров, Ш.Ш.Шаропов, Д.Қ.Сайфуллаева Н.О.Жўраева, А.Х.Болтаев, С.С.Самадова, Ш.К.Махмудов.

КУН ТАРТИБИ

1. “Миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқуқ таълими” йўналиши 4 Б курс талабаларининг битирув малакавий ишларининг дастлабки ҳимояси.

Кафедра йиғилиши қарор қилади

2. “4” Б гуруҳ талабаси Вафоев Шухратнинг « Ўзбекистонда икки палатали парламент:шаклланиши ва ривожланиши.» мавзусидаги битирув малакавий иши талабга жавоб беради, у синов ҳимоясидан ўтди деб ҳисоблансин ва расмий ҳимояга тавсия этилсин.
3. Вафоев Шухратнинг битирув малакавий ишига расмий тақризчи сифатида Миллий ғоя, ҳуқуқ ва маънавият асослари кафедра ўқитувчиси Сайфуллаева Д.Қ тайинлансин.

Кафедра мудири:  **доц. Раупов С.С.**

Котиба:

Жўраева Н.О.

Рецензия на выпускную дипломную работу по теме: «Двухпалатный парламент в Узбекистане: формирование и развитие» студента Социально - экономического факультета отделения «Национальной идеи, права и основ духовности » IV Б курса Вафоева Шухрата.

В данной работе рассмотрен вопрос возникновения и развития парламента в Узбекистане. Работа состоит из введения, двух глав, которые в свою очередь представлены пятью параграфами и заключения. Во введении работы рассмотрены все пункты актуальности исследования. Полностью раскрыты цель и задачи данного исследования. Первая глава посвящена полномочиям парламента, в которой автор смог показать роль этого органа в политическом устройстве. Дано раскрытое изучение истории парламента, а также роли политических партий в формировании и демократизации этого органа. Роль парламента с позиции обеспечения стабильного политического развития, наиболее полно раскрыты в первом параграфе работы. Сноски к литературе имеются не на каждой странице. Пропущены буквы в словах на страницах 13,16. Неполным представляется личный анализ автора к поставленным им вопросам.

Второй параграф посвящен вопросам правовых основ деятельности парламента Узбекистана. Четко указаны предстоящие задачи, которые следует решить в обеспечении стабильного политического развития и история перехода к двухпалатному парламенту. Нужно отметить, что автор при написании этого параграфа использовал не только нашу литературу, но и зарубежную. Кроме того, автор приводит в работе все последние поправки, внесенные в наше законодательство.

Автор использовал несколько устаревшую литературу, и указывает более новую. Недостатком работы является отсутствие анализа приведенных данных и сведений. В конце работы автор приводит несколько предложений о дальнейшем развитии парламента в обеспечении мира и стабильности.

В целом работа отвечает всем требованиям, ее можно считать положительной.

Преподаватель кафедры

**«Национальной идеи, права
и основ духовности »**

 **Сайфиллаева Д.К.**

Mavzu: O'zbekistonda ikki palatali parlament: shakllanishi va rivojlanishi

Reja:

Kirish

I. O'zbekistonda parlamentarizm va uni shakllantirish va demokratlashtirishda siyosiy partiyalarning o'rni

1. Parlament maqomi va vakolatlari
2. Parlament tarixi
3. O'zbekistonda parlamentni shakllantirish va demokratlashtirishda siyosiy partiyalarning o'rni

II. O'zbekistonda parlament islohotlari va parlament faoliyatining huquqiy asoslari

1. O'zbekiston Respublikasida parlament islohotlarining tarixiy zarurati va ikki palatali parlamentga o'tilishi
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining shakllanish tartibi va parlament faoliyatining huquqiy asoslari

Xulosa

Adabiyotlar

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Parlament, odatda, bir palatali yoki ikki palatali bo'lishi mumkin (kamdan-kam holatlarda parlament uch yoki undan oshiq palatali bo'lishi mumkin). Ikki palatali parlament tizimida (strukturasida) quyidagi ikki prinsip, ya'ni palatalarning tengligi prinsipi, shuningdek yuqori va quyi palata prinsipi qo'llaniladi.

Ikki palatali parlamentni tuzishning juda ko'p usul va yo'llari mavjud. Biroq, eng avvalo, aholining umumiy siyosiy madaniyatini yuksaltirish, siyosat bilan professional darajada shug'ullanuvchi shaxslar qatlamini vujudga keltirish, parlament qurilishi tajribasini orttirish va ko'paytirish zarur. Jahon tajribasida ikki palatali parlament tizimining ikki asosiy ko'rinishi - kuchsiz yuqori palata yoki kuchli yuqori palata tizimlari farqlanadi. Kuchsiz yuqori palata o'zi norozi bo'lgan parlament qarorlarining qabul qilinishini orqaga surishi mumkin, xolos; ammo unga to'sqinlik qila olmaydi. Ko'pincha bu qonunchilik jarayoniga tegishlidir. Masalan, Buyuk Britaniya parlamentining Lordlar palatasi quyi palata qabul qilgan bill (qonun loyihasi)ni bir yilgacha, agar bill moliyaviy masalada bo'lsa, bir oydan ortiq bo'lmagan muddatga to'xtatib turishi mumkin. (1911-yil qabul qilingan Parlament to'g'risidagi akt 1-moddasining 1-qismi hamda 1911-yilgi Parlament to'g'risidagi aktga o'zgartishlar kiritish haqidagi 1949-yilgi Aktning 1-moddasi). Polsha Seymi qabul qilingan qonunga Senat bildirgan e'tirozni mutlaq ko'pchilik ovoz bilan rad qilishi mumkin (Kichik Konstitutsiyaning 17-moddasi, 4-qismi).

Kuchli yuqori palataning o'ziga xosligi shundaki, uning rozilgisiz parlament qarori qabul qilinmaydi. Masalan, AQSH Konstitutsiyasi 7-

bo'limi 1-moddasining 2-qismidan shu qoida kelib chiqadiki, agar qonun Kongressning har bir palatasida qabul qilinmasa, yuridik kuchga ega bo'lmaydi. Bu qoida Italiya Konstitutsiyasining 70-moddasida ham o'z aksini topgan. Unga ko'ra, qonunchilik funksiyasi har ikki palataning hamkorligida amalga oshiriladi.

Palata parlamentning o'z nomiga, vakolatlari va vazifalariga ega bo'lgan, nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir. Ikki palatali parlament modeli shunga olib keladiki, XXI asr arafasida Yevropa va Amerika mintaqalaridagi aksariyat davlatlar ikki palatali parlamentga ega bo'ldilar. Ayni paytda, ikki palatali tizim nafaqat federativ davlatlar, balki unitar davlatlarga ham xosdir.

Bikameralizmning (ya'ni parlamentning ikki palatali modelining) ahamiyati uning quyidagi funksiyalarida aks etadi:

1) aholi va hudud vakilligining ancha to'liq ta'minlanishi. Agar bir palata muayyan saylovchilar deputatlarining vakilligi asosida tashkil topsa, boshqasi davlat tarkibiy qismlari (shtat, o'lka, viloyat kabilar)ning vakilligi asosida tashkil topadi. Har ikki palata birgalikda butun mamlakat aholisi hamda uning tarkibiy qismlarining manfaatlarini e'tiborga olish va ifodalash imkonini beradi;

2) mehnatning samarali tashkil etilishi, bu o'rinda murakkab va sarmashaqqat faoliyatning oqilona taqsimlanishini ta'minlaydi. Har bir palata qonunchilik jarayonida o'z funksiyasini bajaradi. Bu esa ularning birgalikda shoshma-shosharlik bilan xato qarorlar qabul qilinishini istisno etuvchi puxta o'ylangan qaror qabul qilishlariga ko'maklashadi;

3) parlamentning ikki palatali tuzilishi murosasiz, kelishuv, ziddiyatlarni bartaraf etish, zarur qonunlarni ishlab chiqish vositalarini o'zida mujassamlashtirgan qonunchilik hokimiyatining tarixiy shakllangan

mexanizmidir. Ikki palatali tizimga o'tgan mamlakatlar uning ijobiy tomoni sifatida yuqori palataning parlamentni ko'pincha o'ylamasdan, his-hayajonga berilib, ba'zan esa to'g'ridan-to'g'ri shuhrat qozonish maqsadida qarorlar qabul qilishdan to'xtatib turishini e'tirof etadilar. Palatalar shakllanish tartibi, ichki tuzilishi va boshqa xususiyatlari bilan ham o'zaro farqlanadi. Masalan, yuqori palatada odatda partiya fraksiyalari va bloklar tuzilmaydi.

O'zbekistan Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2000-yil 25–26-may kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida O'zbekiston parlamenti– Oliy Majlisni doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali tizimga o'tkazish to'g'risidagi g'oyani ilgari surdi.

Ikki palatali parlamentga o'tilishi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati o'rtasidagi vakolatlarning chinakam demokratik taqsimlanishga olib keldi.

O'zbekistonda ikki palatali parlamentning qaror topishi jo'shqin siyosiy islohotlarning markaziy voqeasi bo'ldi va u davlatchiligimiz taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

2004-yilning 26-dekabrida bo'lib o'tgan saylovlar (2005-yil 9-yanvarida amalga oshirilgan takroriy ovoz berish) natijasida O'zbekiston Respublikasida ilk bor ikki palatali parlamentning quyi palatasi – Qonunchilik palatasi shakllantirildi. So'ngra, Konstitutsiyaga muvofiq, 2005-yilning 17–20-yanvar kunlari Respublikamiz mahalliy hududlarida O'zbekistan Respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi – Senatga saylov o'tkazildi. Senat a'zolariga nomzodlarni oqsoqollar kengashlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining davlat va jamiyat

hayotida faol ishtirok etib, katta amaliy tajribaga ega bo'lgan eng obro'li deputatlari orasidan ko'rsatdilar. Shuningdek, Senatning 16 nafar a'zosi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq tayinlandi.

2005-yilning 28-yanvar kuni esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Qo'shma majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov davlatimizning ichki va tashqi siyosati, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy islohotlarni chuqurlashtirish, parlament oldida turgan asosiy vazifalar to'g'risida ma'ruza qildi. Ma'ruzada “davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iborat”— deb ta'kidlandi.

Dunyo siyosiy-yuridik xaritasiga e'tibor beradigan bo'lsak, AQSH, Rossiya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlar ikki palatali parlament vositasida o'z rivojlanishini jadal davom ettirmoqdalar. XX asrning 60–70-yillarida dunyoda ikki palatali parlamentlar 45 tadan ortiq davlatda faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, XXI asr boshiga kelib, bundan parlamentlarning soni 70 taga yetdi.

Rossiyada ikki palatali tizimga o'tish 1989-yilning 27-oktabrida konstitutsiyaviy islohotlar natijasida amalga oshdi va 1990-yilning mayidan u o'z faoliyatini boshladi. Unga ko'ra parlament Respublika Kengashi va Millatlar Kengashi palatasidan iborat edi.

Rossiya Federatsiyasining hozirgi parlamenti— Federal Majlis (FM) — yuqori (Federatsiya Kengashi) va quyi (Davlat Dumasi) palatadan iborat.

Parlament palatalarining tenglik prinsipi quyidagi holatda ko'zga tashlanadi:

- palatalardagi deputatlar soni deyarli teng bo'ladi;
- palatalar deyarli bir vaqtda o'z faoliyatini boshlaydi;
- bir palatada ko'rib chiqiladigan masala ikkinchi bir palataning kun tartibida ham ko'rib chiqiladi, ya'ni parlament kun tartibi yagona bo'ladi (qonun loyihalarini muhokama qilish va shu kabilar);
- palatalarda qo'shma majlislar tez-tez o'tkazilib turadi;
- ikkala palata manfaatlari bir tilda himoya qilinadi va ularga teng imkoniyatlar beriladi (masalan, parlamentni raisi bo'lmasa, qo'shma majlislarni palatalarning raisi navbatma-navbat olib boradi);
- palatalar doimiy yoki vaqtincha ish olib boruvchi ishchi organlarini yaratishda har ikkala palatadan teng miqdorda vakillar bo'ladi;
- palatalar o'rtasida ixtiloflar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi, ular bir vaqtda o'z faoliyatini yakunlaydilar. Shunday qilib, palatalarning tengligi prinsipida parlament yaxlit holda ish olib boradi.

Quyi va yuqori palatalar prinsipi amalga oshganda quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

- palatalar birgalikda ish olib bormaydilar;
- har bir palataning o'z vakolatlari mavjud bo'ladi;
- har bir palata muammoli masalalarni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etadi;
- palatalar bir vaqtning o'zida yoki turli davrda ish olib borishi mumkin;
- palatalar birgalikda umumiy ish yurituvchi organlar tuzmaydilar;
- palatalardagi deputatlar soni turlicha bo'ladi.

O'zbekiston parlamenti– Oliy Majlis – O'zbekiston Respublikasining doimiy amal qiluvchi vakillik va qonun chiqaruvchi organi bo'lib,

Qonunchilik palatasi nomli quyi palata va Senat nomli yuqori palatadan iborat. Parlamentimizning ushbu tarzda faoliyat yuritishiga “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun (2002-yil 26-dekabr), “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun (2002-yil 26-dekabr) hamda “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun (2003-yil 24-aprel) asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu qonunlarda Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a‘zolarining, joylardagi davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining maqomi, eng muhim vakolatlari va faoliyatining kafolatlari belgilab qo‘yilgan. Ularda deputatning uning nomzodini ilgari surgan saylovchilar va siyosiy partiyalar bilan o‘zaro munosabatlari, davlat hokimiyati vakillik organlaridagi deputatlarning saylov okrugidagi faoliyati, huquq va erkinliklari, deputatlik axloqi masalalari aks ettirilgan.

Konstitutsiyaviy qonun-qoidalarining amalga oshirilishi qonun chiqaruvchi organdan davlat hokimiyati organlarini isloh qilishning yaqin va uzoq muddatli maqsadlarini, shuningdek ularga erishish yo‘llari va vositalarini aniq tushunishga qaratilgan yuksak kasb mahoratini talab etadi. Bu ish jamoatchilikning qo‘llab-quvvatlashini, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda manfaatli ishtirokini nazarda tutadi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.Keyingi yillarda O‘zbekistonda ikki palatali parlamentning shakllanishi va rivojlanishiga bag‘ishlangan qator ishlar e‘lon qilindi.Bu ishlarni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruh ishlarga parlament va u bilan bog‘liq muammolar

jamiyat taraqqiyotining boshqa muammolari bir qatorda o'rganilsa,¹ ikkinchi guruhida parlamentning shakllanishi va rivojlanishi alohida muammo sifatida o'rganilgan.²

BMI maqsad va vazifalari. Ushbu ishda O'zbekistonda ikki palatali parlamentning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni o'rganishni maqsad qilib qo'ydik. Unga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Parlament maqomi va vakolatlarini tahlil qilish;
- Parlament tarixini o'rganish;
- O'zbekistonda parlamentni shakllantirish va demokratlashtirishda siyosiy partiyalarning o'rnini tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasida parlament islohotlarining tarixiy zaruriyati va ikki palatali parlamentga o'tilishini ilmiy asoslash;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining shakllanish tartibi va Parlament faoliyatining huquqiy asoslarini tahlil qilish.

Ushbu vazifalar bajarilib, belgilangan maqsadga erishildi.

¹Islomov Z.M. O'zbekiston modernizatsiya va demokratiya taraqqiyot sari. –T., “O'zbekiston”, 2005-y.
Jumayev R. Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo'lida. –T., “Sharq”, 1998-y. Parlamentarizm: xorijiy mamlakatlar tajribasi. –T., “Sharq”, 2002-y.

²Xalilov E. O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi oliy organi. –T., “O'zbekiston”, 2001. Muranayev S. Oliy Majlis Senati va Saylov qonunchiligi //Falsafa va huquq, 2008-yil, 3-son. Hamedov I.A., Hakimov I.I. Парламентское право. –T., 2003. Шамбек Г.К. К вопросу о значении двухпалатной парламентской системы. //Конституционное право, Т-2003.

I. O'zbekistonda parlamentarizm va uni shakllantirish va demokratlashtirishda siyosiy partiyalarning o'rni

1. Parlament maqomi va vakolatlari

Insoniyat tarixida jamiyatning umummilliy vakillik muassasasi sifatida paydo bo'lgan parlament instituti XII-XIII asrlarda shakllangan ingliz parlamenti va ispan korteslariga borib taqaladi. O'zining uch ming yildan ortiq davlatchilik an'alariga ega bo'lgan Sharqda ham davlat boshqaruv tizimida parlamentga xos tuzilmalar (qurultoy, kengashlar) bo'lgan. Masalan, sohibqiron Amir Temur kengash a'zolarini maxsus farmon asosida o'n ikki tabaqa vakillaridan tayinlagan. "Tuzuk"larida bobokalonimiz har bir tadbir va ishni kengash maslahati bilan olib borganini va vorislariga ham kelajakda bu tartibga amal qilishni tayinlagani haqida yozilgan.

Parlamentarizm asrlar mobaynida taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. Parlamentlarning jahon mamlakatlarida yoyilishi 1789-yilgi fransuz inqilobi hamda AQSHning o'z mustaqilligi uchun olib borgan kurashi davridan boshlanib, birinchi jahon urushiga qadar davom etgan. XX asrning 20-yillarida parlamentlarning mavqei va ijtimoiy hayotdagi o'rni birmuncha susaygani kuzatiladi.

Ammo XX asrning 60-yillariga kelib parlamentarizmning yuksalish davri boshlandi va bu jarayon davom etib kelmoqda. Parlamentlarning qayta faollashish jarayonida ayollarning ham saylash huquqiga ega bo'lishi saylovchilar tarkibi ortishiga olib keldi, ko'pgina cheklashlar bartaraf etildi. Natijada parlament jamiyatning chinakam xalq vakillik organiga aylandi, saylovlar erkin, teng huquqli asosda va yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladigan bo'ldi. Saylov tizimi, parlament tuzilishi hamda uning ish tartibi takomillashdi.

Hozirgi zamon parlamentlari tuzilishi, vakolatlari, ijtimoiy tarkibi, mamlakat siyosiy tizimidagi o'рни va mavqei, nomlanishi, deputatlarining soni bilan bir-biridan farq qiladi. Lekin ularning barchasi uchun davlat boshqaruvidagi birlamchi vazifa qonun chiqaruvchi hokimiyat vakolatlarini amalga oshirishdan iboratdir. Parlamentlar bir palatali yoki ikki palatali tuzilishga ega. Biroq ko'p palatali parlamentlar ham bo'lgan. Masalan, Janubiy Afrika Respublikasi parlamenti uch palatadan (irqiy tamoyilga ko'ra), Yugoslaviya parlamenti esa olti palatadan (kasbiy tamoyilga ko'ra) tarkib topgan edi. Albatta, bu kabi holatlar juda kam uchraydi. Vaqt o'tishi bilan ko'p palatali parlamentlarning hayotiy emasligi ko'rinib qoldi va ularning o'rnini bir va ikki palatali parlamentlar egalladi.

Bir palatali parlamentlarning afzalliklari tuzilishining soddaligi va ixchamligi, aholi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylanishi, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotiga oid masalalarni yechishda katta vakolatlarga ega bo'lishi, qaror va qonunlar birmuncha soddaroq ko'rinishda ishlab chiqilishida ko'rinadi. Shu bilan birga, bir palatali parlamentning zaif tomonlari ham bor. Chunonchi, bir palatali parlament davlatning hududiy birliklari vakilligini to'liq ta'minlay olmaydi, parlamentning radikallasuvi, unda partiyaviy yakkahokimlik xollari kuchayishi, parlament boshqa davlat organlariga qarshi turib, barcha vazifalarni o'z zimmasiga olishi mumkin.

Ikki palatali (bikameralizm) parlamentlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan federativ davlatlarda shakllantiriladi. Odatda, federativ davlatlarning yuqori palatalari uning subyektlari vakillaridan tarkib topadi. Bunday parlament unitar, ya'ni markazlashgan davlatga mos emas, degan nuqtai nazar ham mavjud. Biroq ikki palatali parlamentlarning soni,

aksincha, unitar davlatlarda ham ortib borib, ular hozir dunyoning yetmishta mamlakatida faoliyat ko'rsatmoqda. Bularga misol tariqasida Fransiya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Yaponiya, Malayziya kabi davlatlarni keltirish mumkin.

Parlamentning ikki palatali shaklda tashkil etilishi natijasida jamiyatning barcha qatlamlari keng qamrab olinadi. Bunda hududlarning xususiyatlari to'la aks etadi. Shuningdek, har ikki palata deputatlariga nisbatan yuqori talablar qo'yiladi. Yuqori palata tarkibida malakasi, tajribasi ko'proq, hurmati va yoshi ulug' kishilar bo'lsa, quyi palata deputatlari orasida esa, asosan yuksak kasb mahorati va ishchanlik qobiliyatiga katta e'tibor qaratiladi. Shuning uchun ham yuqori palata quyi palatani muvozanatlashtirib turadi va uning qarorlarini takomillashtiradi. Eng muhimi, ortiqcha ehtirolarga yo'l qo'ymaydi, partiya ta'sirini umumdavlat manfaatlari foydasiga hal qilish bilan birga quyi palata radikallashtirishning oldini oladi. Bundan tashqari, professional parlamentning rivojlanishi siyosiy partiyalarning o'zaro raqobati, aholi turli qatlamlarining qonunchilik jarayonida ishtirok etishida namoyon bo'ladi. Ikki palatali parlamentning tuzilishi quyi palatani professional asosda shakllantirishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan qayta shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Prezident Islom Karimov boshchiligida mamlakatimizda qisqa muddat ichida qonun chiqaruvchi organ - Oliy Majlis shakllantirilib, faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi. Milliy parlamentga xos vazifa va vakolatlar hamda uning qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil faoliyati, parlamentlararo aloqalar, fuqarolarning

murojaatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq faoliyatining asosiy yo'nalishlari belgilandi.

Mamlakatimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar natijasi

o'laroq, Oliy Majlis dastlab bir palatali parlament sifatida tashkil etildi. U o'z faoliyati davomida qonunchilik, davlat boshqaruvi, o'tish davri qiyinchiliklari keltirib chiqargan ijtimoiy muammolarni yechish jarayonida salmoqli tajribaga ega bo'ldi. Mamlakat parlament qabul qilgan qonunlar majmui ijtimoiy hayotning turli jabhalarini demokratlashtirishning huquqiy poydevorini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mamlakat parlamenti faoliyatini takomillashtirish, qabul qilinayotgan qonunlar sifatini oshirish hamda uning kasbiy mahoratini kuchaytirish masalasiga e'tibor qaratib, Oliy Majlisning ikkinchi chaqirik ikkinchi sessiyasidagi ma'ruzasida: "Shuni yaxshi anglab olishimiz zarurki, hayot o'zgarishi bilan, odamlarimizning avvalgi siyosiy va ma'naviy ongi ulg'ayishi bilan, bizning parlamentimizning tashkil etilishida ham tegishli o'zgarishlar bo'lishi tabiiydir. Shu holatlarni nazarda tutib, men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o'tish taklifini kiritmoqchiman", deb ta'kidlagandi. Oliy Majlisning yettinchi sessiyasida esa, mazkur masala bo'yicha umumxalq referendumini o'tkazish haqida qaror qabul qilindi.

O'zbekistonda ikki palatali parlamentni shakllantirishda Respublika Oliy Majlisining 2002-yil aprelidagi VIII sessiyasida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 27-yanvar Referendum yakunlari bo'yicha qonunchilik ishlarining asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori hamda "Referendum yakunlari va davlat hokimiyatini tashkil etishning

asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Parlamentning 2002-yil dekabridagi X sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi.

Ikki palatali parlamentga o'tish mamlakatimizda parlamentarizm rivojlanishining yangi muhim bosqichi sifatida parlament demokratiyasi prinsiplari qaror topishini, fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishini ta'minlaydi. Bugun mamnuniyat bilan aytishimiz mumkin, mamlakat parlamenti ayni shu masalalarni nazarda tutib, o'z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining 2005-yil 28-yanvardagi qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasida O'zbekistonda "Ikki palatali parlament barpo etishdan maqsad:

Birinchi– parlament o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishi, har tomonlama asosli va puxta qarorlar qabul qilishi uchun zarur bo'lgan o'zaro muvozanat va cheklovlar tizimini yaratish.

Ikkinchi– qonunchilik palatasi o'z faoliyatini doimiy professional tarzda olib borishini nazarda tutgan holda, parlamentning qonun ijodkorligi borasidagi ishining sifatini keskin oshirish.

Uchinchi– Senat asosan mahalliy Kengashlar, hududlarning vakillaridan iborat bo'lishini hamda vakillik vazifasini bajarishini inobatga olib, umumdavlat va hududiy manfaatlarining mutanosibligiga erishish.

To'rtinchi– aholining mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki ko'lamini yanada kengaytirish ekanligini alohida ta'kidlab o'tgndi.³

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi faoliyatining tartibi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni va Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risidagi hamda boshqa qonunlar bilan belgilanadi.

Qonunchilik palatasi o'zining vakolatlariga kiritilgan, shuningdek, palataning ichki faoliyatini tashkil etishga doir masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi, umumsiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa masalalar yuzasidan bayonot va murojaatlar bilan chiqishi mumkin.

Qonunchilik palatasi faoliyatining tashkiliy shakli palata sessiyalari davrida o'tkaziladigan majlislaridir.

Majlislarni tashkil qilish va o'tkazish tartibi Qonunchilik palatasi Reglamentida belgilanadi.

O'zbekistan Respublikasi Oliy Majlisi Senati o'z ishini yalpi majlislarga va qo'mitalari majlislariga to'planadigan senatorlar faoliyatiga asosan olib boradi. Senatda hududiy mansublikka ko'ra hamda siyosiy yoki boshqa asoslarda guruhlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Senat faoliyatining tartibi O'zbekistan Respublikasi Konstitutsiyasi, "O'zbekistan Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni va "Oliy Majlis Senatining

³Karimov I. A. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining Qo'shma majlisidagi nutqi. // Xalqso'zi 2005-y. 29-yanvar.

Reglamenti to'g'risida"gi qonuni hamda boshqa qonunlar bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;
- O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;
- O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlari belgilash;
- O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;
- boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan, Davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish;
- O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish;
- tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirish;
- davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarini saylash;
- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish hamda Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval Oliy Majlisning Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatida ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining mutlaqvakolatlariga: Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash; O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining taqdimiga binoan Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatini dahlisizlik huquqidan

mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish; o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish; siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining mutlaq vakolatlariga: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisini va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini, Oliy sudini va Oliy xo'jalik sudini saylash; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisini tayinlash hamda uni lavozimidan ozod etish; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik Xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan, O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish; O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining taqdimiga binoan Oliy Majlisning Senati a'zosini dahlsizlik

huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish; O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish; o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog'lik masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish; siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatali tizimda shakllantirilganidan keyin o'tgan davrdagi faoliyati davomida to'la ma'nodagi professional parlament sifatida o'zini oqladi. Mamlakatda yangi parlamentarizm maktabiga asos solindi. Mamlakat qonun chiqaruvchi hokimiyatining faoliyatida yangi sifat ko'rsatkichlariga erishildi. Eng muhimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, aholi keng qatlamlari manfaatlarini parlament va uning deputatlari tomonidan munosib himoya qilishga keng imkoniyatlar yaratildi.

2. Parlament tarixi

Huquqiy davlatchilikni shakllantirish ko'plab muammolarni bartaraf etish bilan bog'lik bo'lgan murakkab va davomli jarayondir. Parlamentarizm prinsiplari asosida faoliyat ko'rsatuvchi davlat institutlari bilan bog'lik masalalar O'zbekistonda huquqiy davlatchilikning qaror topishiga taalluqli-muammolar silsilasida muhim o'rin tutadi. Chunki XXI asrning boshlariga kelib oddiy bir haqiqat – to'la vakolatga ega bo'lgan parlamentsiz mamlakatda to'laqonli demokratiya bo'lishi mumkin emasligi yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. Binobarin, fuqarolar demokratiya to'g'risidagi tasavvurlarini avvalo davlatni idora etishda o'zlari ishtirok etishlarining real imkoniyati bilan, qolaversa parlament orqali qonun ijodkorligi jarayoniga ta'sir ko'rsata olish imkoniyatlari bilan bog'laydilar.

Parlament tarixi asrlar bilan o'lchanadi. Zamonlar o'zgarishi bilan parlamentlarning roli ham izchil o'zgarib, uning mohiyati yangi g'oyalar, tamoyillar bilan, shakllanish va faoliyat ko'rsatish tajribasi bilan boyib bormoqda. Parlamentarizm g'oyasi birinchi ming yillik bo'sag'asida Rimda, Angliya va Ispaniyada xalq majlislari shaklida yuzaga kelgan bo'lib, shundan so'ng davlat anjumani darajasiga ko'tarilgunga qadar yana bir necha taraqqiyot bosqichlaridan o'tdi.

Shu zaylda parlament davlat instituti sifatida uzoq tarixni bosib o'tdi. Parlamentarizm taraqqiyotining bosh tendensiyasi shundan iboratki, parlamentlar ijtimoiy turmushda markaziy o'rin tutadi. Tabiiyki, har bir davlat parlamentning tuzilishi va faoliyat ko'rsatish masalalarini o'zicha hal etadi. Lekin bu keng amaliyotida hisobga olinadigan mushtarak belgilar bo'lishi mumkin emas, degan ma'noni anglatmaydi, albatta. Shu munosabat bilan parlament institutlari qaror topishi va rivojlanish tajribasi

o'rganilishini ta'minlash, tarixdagi ularning ahamiyatini, o'rnini anglash, ular tabiatining hozirgi paytdagi tadrijiy taraqqiyoti va mohiyatini tushunib yetish, kelgusida uni rivojlantirish istiqbollarini belgilab olish juda muhimdir.

O'zbekiston qonun chiqaruvchi oliy organining qaror topishi o'ziga xos jihatlariga ega. Bu avvalo tarixiy o'tmishga bog'liq. Milliy o'zlik davlat qurilishining turli shakl va usullarini nazarda tutadi. Shunday qurilishning tanlab olingan muayyan usuli esa milliy-tarixiy o'ziga xoslik bilan umumjahon tamoyillarining sintezidir. Zero, har qanday ijtimoiy voqelikni anglash uchun birinchi navbatda u muayyan tarixiy bosqichning konkret sharoitlarida qay tarzda yuzaga kelganligini, o'z taraqqiyotida qaysi asosiy bosqichlardan o'tganligini, ana shu rivojlanish jarayonida qay darajada o'zgarganligini, istiqbolda uning qay tarzda harakat qilishini anglab olish muhim ekanligi bejiz emas. Ana shu qoidalar har qanday ijtimoiy voqelikni, shu jumladan parlament singari muhim institut masalasini ko'rib chiqishda alohida ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, amaliyotning dalolat berishicha, parlamentarizmning qaror topishi o'ta murakkab, ba'zan esa mashaqqatli jarayondir.

Unda tarixiy davrning o'ziga xos jihatleri, har bir alohida mamlakatning ijtimoiy va davlat hayoti, milliy an'analari, xalqning huquqiy madaniyati va siyosiy xoxish-irodasi namoyon bo'ladi. Tabiiyki, ijtimoiy amaliyotning rivoji, tarixiy taraqqiyotning kechishi mamlakat qonun chiqaruvchi organi to'g'risidagi nazariy tasavvurlarni ham o'zgartirib boradi.

Qonunchilik hokimiyati davlat hokimiyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni takomillashtirish davlat hokimiyati butun tizimining tarixiy evolyutsiyasi bilan bog'liq. Shu sababli qonun chiqaruvchi oliy

organlarning qaror topishi va rivojlanishi muammolarini har tomonlama tahlil etish davlat qurilishi, nazariyasi va amaliyoti uchun, O'zbekiston parlamentarizmining kelajagi uchun teran ahamiyat kasb etadi. Ayni paytning o'zida istiqbolni belgilab olish uchun o'tmishni chuqur va xolis o'rganmoq zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek: "Millatni asrash kerak, millatni asrash uchun esa uning haqiqiy tarixini o'rganish, avaylab himoyalash kerak". Demak, tarixiy yondashuv siyosiy-huquqiy tahlilning ajralmas qismi bo'lib, usiz siyosiy voqelikka haqqoniy baho berib bo'lmaydi.

O'zbekiston 1991-yil 1-sentabrda davlat mustaqilligiga erishgach, davlat hokimiyatining eng muhim institutlaridan biri sifatida milliy parlamentni rivojlantirishning sifat jihatidan yangi bosqichi boshlandi. Milliy parlamentarizmning eng yangi tarixi umum e'tirof etilgan uchta asosiy davrga bo'linadi.

Birinchi davr: 1991-1994-yillar;

Ikkinchi davr: 1995-2004-yillar;

Uchinchi davr: 2005-yildan hozirgi paytgacha.

Birinchi davr: 1991-1994-yillar. O'tish davri parlamenti deb atash mumkin bo'lgan oxirgi chaqiriq Oliy Kengash davlat boshqaruvining mutlaqo yangi organlarini tashkil etishning, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli demokratik jamiyat qurishning huquqiy negizi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Parlament yosh davlatning suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi, "O'zbekiston

Respublikasining davlat tili haqida”gi, “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to’g’risida”gi va boshqa bir qator qonunlarni qabul qildi. Oliy Kengashning o’n ikkinchi sessiyasi 1994-yil 23-sentabrda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga birinchi saylovni 1994-yil 25-dekabrda o’tkazish to’g’risida qaror qabul qildi.

Uch bosqichda (1994-yil 25-dekabrda, 1995-yil 8- va 22-yanvarda) bo’lib o’tgan saylov yakunlariga binoan 245 nafar deputatdan iborat tarkibdagi parlament shakllantirildi. Saylov ko’p partiyaviylik asosida o’tkazildi.

Ikkinchi davr: 1995-2004-yillar. Oliy Kengash o’rniga O’zbekiston Respublikasining bir palatali parlamenti — Oliy Majlis shakllantirildi. Birinchi chaqiriq (1995-1999-yillar) Oliy Majlis tarkibida O’zbekiston Xalq-demokratik partiyasidan ko’rsatilgan 69 nafar, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan 47, “Vatan taraqqiyoti” partiyasidan 14 va “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan ko’rsatilgan 7 nafar deputat bo’lib, deputatlarning qolgan qismini hokimiyat vakillik organlaridan ko’rsatilgan shaxslar tashkil etdi.

Ikkinchi chaqiriq (2000-2004-yillar) Oliy Majlisga saylov hokimiyat vakillik organlari bilan bir qatorda beshta siyosiy partiya va saylovchilar tashabbuskor guruhlarida ishtirokida bo’lib o’tdi. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisda 11 nafar deputatni birlashtirgan “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi, 10 nafar deputatdan iborat “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi, 20 nafar deputatga ega bo’lgan “Vatan taraqqiyoti” partiyasi fraksiyasi, 34 nafar deputat tashkil etgan “Fidokorlar” milliy-demokratik partiyasi fraksiyasi, 49 nafar deputatdan iborat Xalq-demokratik partiyasi fraksiyasi, 107 nafar kishidan iborat hokimiyat vakillik organlaridan saylangan deputatlar bloki va 16 nafar

saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bloki ro'yxatga olindi. Keyinchalik "Vatan taraqqiyoti" va "Fidokorlar" partiyalari bitta "Fidokorlar" partiyasiga birlashganligi munosabati bilan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida ularning parlamentdagi fraksiyalari a'zolari ham birlashib, 54 nafar deputatni birlashtirgan bitta fraksiyani tashkil etdilar.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis tarkibida siyosiy partiyalarning fraksiyalari va deputatlar bloklaridan tashqari quyidagi 13 ta qo'mita ham faoliyat ko'rsatdi:

- Byudjet, bank va moliya masalalari qo'mitasi;
- Iqtisodiyotni isloh qilish masalalari va tadbirkorlik qo'mitasi;
- Fan, ta'lim madaniyat va sport masalalari qo'mitasi;
- Sanoat, qurilish, transport va aloqa masalalari qo'mitasi;
- Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi;
- Matbuot va axborot qo'mitasi;
- Ijtimoiy masalalar va bandlik qo'mitasi;
- Agrar, suv xo'jaligi masalalari va oziq-ovqat qo'mitasi;
- Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi;
- Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo'mitasi;
- Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari qo'mitasi;
- Yoshlar ishlari qo'mitasi;
- Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi.

Parlamentda, shuningdek 3 ta doimiy komissiya ishlagan: Reglament, odob va deputatlar faoliyatining-ta'minoti komissiyasi; Oila va ayollar. muammolari komissiyasi; Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi.

Mazkur bosqichda qonun ijodkorligi deputatlar ishining bosh yo'nalishiga aylandi. 1995-2004-yillarda Oliy Majlis 240 ta qonun, 778 ta qaror qabul qildi, amaldagi qonun hujjatlariga 1573 ta o'zgartish va qo'shimcha kiritdi, 130 tadan ziyod xalqaro shartnoma va bitimni ratifikatsiya qildi. Mamlakatning qonun chiqaruvchi oliy organi mazkur bosqichda davlat suverenitetini, fuqarolar tinchligi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga, jamiyatda demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga ko'maklashadigan qonunlar ishlab chiqish va qabul qilishga intildi. Natijada parlament mamlakatning demokratik va taraqqiyot yo'lidan mustaqil rivojlanib borishining huquqiy negizini anchagina kengaytirdi va mustahkamladi. Misol uchun, birinchi chaqiriq Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi, "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunlarda, boshqa qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida asos solingan normalar yanada rivojlantirildi.

Parlament nazorati ham Oliy Majlis faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari qonunlar, konvensiyalar, milliy dasturlar ijrosini nazorat qilish tartibida har yili 60 ga yaqin masalani ko'rib chiqdilar. Bunday nazorat Qoraqalpog'iston Respublikasi, mamlakatning barcha viloyatlari, shuningdek Toshkent shahrini qamrab oldi. Bir palatali Oliy Majlisning nazorat faoliyatini tahlil etish bir qator qonuniyatlarni namoyon etdi. Birinchidan, mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini va huquqni tatbiq etish amaliyotini hisobga olgan holda muqaddam qabul qilingan qonunlarni takomillashtirish tamoyili yil sayin kuchaya bordi.

Ikkinchidan, qonun ijodkorligi ishi borgan sari tarmoq tusini kasb etib, ayrim sohalardagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga intildi. Uchinchidan, bir necha qo'mita vakomissiyalarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan tayyorlangan hamda muhokamaga kiritilgan huquqiy hujjatlarning soni ortib bordi.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylov va ikki palatali parlamentga o'tish (2004-yil dekabr—2005-yil yanvar). Ikki palatali parlamentga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar kiritish asosida amalga oshirilgan konstitutsion islohotlar, shuningdek asosiy konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilinishi natijasida Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazilib, u ikki bosqichdan iborat bo'ldi. Saylov o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonunga muvofiq, saylov uchastkalariga bo'lingan 120 ta saylov okrugi tashkil etdi. Saylovning birinchi bosqichi 2004-yil 26-dekabr kuni o'tkazilib, 62 nafar xalq noibi, 2005-yil 9-yanvarda bo'lib o'tgan ikkinchi bosqichda Qonunchilik palatasiga 58 nafar deputat saylandi. Saylovlar ham O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar, ham saylovchilarning tashabbuskor guruhlarini ko'rsatgan deputatlikka nomzodlar ishtirokida bo'lib o'tdi. Saylovda quyidagi siyosiy partiyalar ishtirok etdi: O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston Xalq-demokratik partiyasi, O'zbekiston "Fidokorlar" milliy-demokratik partiyasi (2000-yilning iyunida "Fidokorlar" partiyasi "Vatan taraqqiyoti" partiyasi bilan birlashgan), O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, shuningdek O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi.

Uchinchi davr. Milliy parlamentarizm rivoj topishining uchinchi davri Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005-yil 28-yanvardagi qo'shma majlisidan boshlanib, bunda yangi ikki palatali Oliy Majlis deputatlari va senatorlari amalda o'z ishlariga kirishdilar. Mamlakatimiz qonun chiqaruvchilarining ana shu tarixiy anjumanida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov dasturiy ma'ruza qilib, unda jamiyatimizni demokratlashtirish hamda yangilashning aniqva teran asoslantirilgan konsepsiyasini, shuningdek mamlakatimizni 2005-yilda va uzoq muddatli istiqbolda isloh etish hamda modernizatsiya qilishning asosiy vazifalarini ilgari surdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilishning davlatimiz boshlig'i tomonidan olg'a surilgan ustuvor yo'nalishlari hamda aniq maqsadli vazifalari asosida ishlab chiqilgan 2005-2009-yillarga mo'ljallangan.

Parlamentning keying tarixi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2010-yil 12-noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuquqrlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida ilgari surgan g'oyalarni amalga oshirish muammolari bilan bog'liqdir.

2011-yilning mart oyida Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi tomonidan ushbu ma'ruzada ilgari surilgan g'oyalarni amalga oshirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga) qo'shimchalar kiritish to'g'risida qonun qabul qildi. Shuningdek, 2014-yil aprelda "O'zbekiston Respubliakasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar

kiritish to'g'risi"da (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga)gi qonun qabul qilindi.⁴

⁴Milliy tiklanish, 2014-y. 17-aprel.

3. O'zbekistonda parlamentni shakllantirish va demokratlashtirishda siyosiy partiyalarning o'rni

Mamlakatimiz mustaqilligining o'tgan yillari mobaynida juda ulkan ishlar amalga oshirilganini alohida ta'kidlash lozim. Davlat va jamiyatning barcha jabhalarida o'zgarishlar sodir bo'ldi. Milliy davlatchilikning "o'zbek modeli"ga asoslangan yangi andozasi vujudga keldi. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida siyosiy partiyalarning o'rni beqiyosligini ta'kidlash o'rinlidir. Respublikamizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar siyosiy partiyalar oldiga yangidan-yangi talablarni qo'yimoqda. Bu talablarni bajarish esa siyosiy partiyalarga katta mas'uliyat yuklaydi. Ushbu mas'uliyatni his etib, o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni bajara olayotgan partiyalar ijtimoiy-siyosiy hayotda faoliyatini yana davom ettirayotgan bo'lsa, ayrimlariga ushbu mas'uliyat yuki og'irlik qilib qolgani ham sir emas.

Ma'lumki, o'z oldiga huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini qaror toptirishni maqsad qilib qo'ygan har bir mamlakat siyosiy partiyalarga ehtiyoj sezadi. Fuqarolik jamiyatida siyosiy partiyalar jamiyat va davlatni bog'lovchi demokratik institut vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 60-moddasida "Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar",⁵- deb qayd etilgan. Ma'lumki, hozirgi kunda har bir siyosiy partiya amaldagi qonunlarga binoan saylov jarayonida Prezidentlikka, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatligiga o'z nomzodlarini ko'rsatib, davlat hokimiyatini

⁵O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2009. 12-b.

shakllantirishda ishtirok etmoqda. Hozirda mamlakatimiz fuqarolari siyosiy partiyalar orqali nafaqat davlat hokimiyatini shakllantirishda, hattoki.ular faoliyatini nazorat qilishda ham ishtirok etadi. Shunday ekan jamiyatda siyosiy partiyalarning mavjudligi obyektiv zarurat tufayli yuzaga kelishi tabiiy.Zotan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda aynan siyosiy partiyalar muhim rol o'ynaydi.Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Bunday tashkilotlarning obro'si oshib, mustahkamlanib borgani sari fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli jamiyatimizda tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda jamoatchilik va fuqarolik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda".⁶

O'z-o'zidan tushunarliki, mamlakatda bir necha partiyalarning mavjudligi ko'ppartiyaviylik tizimini yuzaga keltiradi. Z. Islomov ta'kidlaganidek: "jamiyatda faoliyat olib borayotgan turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar manfaatlari, maqsadlari, ehtiyojlari va niyatlari aynan ko'ppartiyaviylik... Ko'ppartiyaviylikning biron-bir partiya yoki guruh tomonidan siyosiy hokimiyatning monopoliya qilib olinishiga to'sqinlik qilish funksiyasini ham unutmaslik darkor".⁷Haqiqatdan ham, ko'ppartiyaviylik tizimini totalitar davlatlar o'zi uchun yot deb bilsa, demokratik yo'lni tanlab olgan mamlakatlar uchun u muhim tarkibiy qismhisoblanadi.O'z oldiga demokratik tartiblarni amalga oshirishni, huquqiy davlat fuqarolik jamiyatini qaror toptirishni maqsad qilib olgan

⁶Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik isohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2010. 42-43-b.

⁷Islomov Z.M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. – T.: "O'zbekiston", 2005. 130–131-b.

har bir xalq mamlakatda bir necha partiyalar faoliyat olib borishidan manfaatdor. Chunki yuqorida ta’kidlaganimizdek, mamlakatda bir necha siyosiy partiyalarning faoliyat yuritishi natijasida jamiyatda turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar manfaatlari, maqsadlari va ehtiyojlari ifoda etiladi. Prezident Islom Karimov uqtirganidek: “...Mamlakatimiz siyosiy hayotida haqiqiy ma’nodagi ko’ppartiyaviylik muhiti qaror topishi darkor. Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamlarga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o’zining aniq va ravshan harakat dasturiga ega bo’lishi kerak”.⁸

Totalitar jamiyatda buni aksi, ya’ni yagona monopol partiya hukmron elita manfaatlarini ifodalaydi. Oddiy fuqarolar bundan jabr ko’radi. xolos. “Yakkapartiyaviylik tuzumida yashagan kunlarimizning qanday xunuk oqibatlarga olib kelganini nazarda tutib, biz bunga aslo yo’l qo’yolmaymiz”,⁹ deydi Yurtboshimiz. Jamiyatda bitta partiyani yakka hukmronlik qilishi oqibatida demokratiya izdan chikadi, xalq vahokimiyat bir-biridan ajraladi, hokimiyat egalari buziladi, mamlakat tanazzul va parokandalikka yuz tutadi. Shu sababdan ham O’zbekiston Respublikasida istiqlolning ilk yillaridanoq fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, mamlakatda siyosiy plyuralizmni ta’minlaydigan subyekt — ko’ppartiyaviylik tizimining qaror topishiga asosiy e’tibor qaratildi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ilk “O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li” asarida “chinakam demokratiyaning zarur va qonuniy tarkibi sifatida ko’ppartiyaviylikni amalda shakllantirish” insonga siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy borliqni erkin tanlashni kafolatlash mumkinligi shartlaridan biri, deb

⁸Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. – T.: “O’zbekiston”, 2000. 333-b.

⁹Karimov I.A. Bizdan Ozod va obod Vatan qolsin. T.2. –T.: “O’zbekiston”, 1996. 351-b.

hisoblaydi.¹⁰ Shunday ekan Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, respublikamizda: "Yangi sharoitda davlatning, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining g'oyat muhim vazifasi siyosiy partiyalar bilan ishlash va hamkorlik qilishning yangidan-yangi shakllarini izlab topishdan iboratdir".¹¹

Shu o'rinda ta'kidlash zarurki, davlat hokimiyati, siyosiy partiya va inson o'rtasida uzviy munosabat shakllanishi lozim. Ushbu subyektlar o'rtasidagi munosabatni ta'minlaydigan elementlardan biri bu — saylov tizimidir. Respublikamizda saylov tizimi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik shakllantirildi. Prezident I. Karimov ta'kidlaganidek: "Ushbu qonunlarda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarning faqat ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishi qat'iy belgilab qo'yildi. Mamlakat Prezidenti lavozimiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarni siyosiy partiyalar tomonidan, mahalliy kengashlar deputatligiga nomzodlarni esa — siyosiy partiyalarning joylardagi tegishli organlari tomonidan ko'rsatilishi to'g'risidagi prinsipial qoida mustahkamlandi. Deputatlikka nomzodlarning davlat hokimiyati ijro organlari tomonidan ko'rsatilishi amaliyoti bekor qilindi va bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish yo'lidagi prinsipial qadam bo'ldi".¹²

Masalan, bu jarayonlar rivojini birgina Parlament uchun o'tkazilgan saylovlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqadigan bo'lsak, quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. 1994-yil 5-dekabrda ilk bor ko'ppartiyaviylik asosida Oliy Majlisga bo'lgan saylovlarda nomzod ko'rsatish huquqi ikkita subyekt - siyosiy partiyalar va hokimiyat vakillik organlariga

¹⁰Islomov Z.M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. –T.: "O'zbekiston", 2005. 55-b.

¹¹Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. –T.: "O'zbekiston", 1998. 141-b.

¹²Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2010. 36-b.

berilgan edi. Natijada Oliy Majlisdagi 250 deputatlik o'rniga siyosiy partiyalardan 83 nafar, hokimiyat vakillik organlaridan 167 nafar deputat saylandi.

1999-yil 25-dekabrda Oliy Majlisga bo'lgan saylovlarda esa nomzod ko'rsatish huquqiga uchta subyekt — siyosiy partiyalar, hokimiyat vakillik organlari, saylovchilar tashabbuskor guruhlariga ega bo'ldi. Saylov natijalariga ko'ra, siyosiy partiyalardan — 123, hokimiyat vakillik organlaridan — 110, saylovchilar tashabbuskor guruhidan 16 nafar deputat saylandi.

2004-yilning 26-dekabrda ikki palatali parlamentning quyi palatasiga bo'lib o'tgan saylovlarda ikkita subyekt — siyosiy partiyalar va saylovchilar tashabbuskor guruhlariga nomzod ko'rsatish huquqidan foydalangan. Natijada saylovlarda qatnashgan to'rtta partiya tomonidan ko'rsatilgan nomzodlardan — 108, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan esa 12 nafar deputat saylangan.

2008-yilning 25-dekabrda qabul qilingan “Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonunning kuchga kirishi birinchi galda siyosiy partiyalar faolligini oshirishga ko'maklashgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ularga katta mas'uliyat ham yukladi. Ya'ni ushbu qonunga muvofiq Qonunchilik palatasidagi 150 deputatlik o'rnidan 135 tasiga faqat siyosiy partiyalar nomzod ko'rsatish huquqiga ega bo'ldi, 15 ta o'rin esa saylov kvota (norma, ulush, xissa)siga binoan, O'zbekiston Ekologik Harakatiga berildi.

Bundan tashqari, yuqoridagi qonunga muvofiq, siyosiy partiyalarning saylov jarayonidagi o'rnini ko'rsatib beradigan, shu bilan birga saylov jarayonining yanada liberallashtirishini ta'minlaydigan o'zgartish

vaqo'shimchalar kiritildi. "Jumladan, saylovda ishtirok etadigan siyosiy partiyalarning ro'yxatdan o'tishi uchun o'rnatilgan muddat 6 oydan 4 oyga tushirildi. Ayni vaqtda siyosiy partiyalarning saylovda ishtirok etishi uchun ruxsat berish masalasini hal etish borasida zarur bo'ladigan saylovchilar imzosining miqdori avvalgi 50 ming imzo o'rniga 40 ming qilib belgilandi. Shuningdek, deputatlikka nomzodlarning ishonchli vakillari oni 5 nafardan 10 nafargacha ko'paytirildi. Shuningdek, saylov to'g'risidagi qonun hujjatlariga siyosiy partiyaning "vakolatli vakili" degan yangi institut kiritildi, unga imzo varaqalarining to'g'rito'ldirilishini tekshirishda, saylov uchastkalarida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish huquqi berildi... Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishning barcha bosqichlarida, shuningdek, saylov kunida ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda deputatlikka nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalardan bittadan kuzatuvchi"¹³ ishtirok etishi belgilab qo'yildi. Bu esa Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlarga 2009-yilning 27-dekabrida bo'lib o'tgan saylovlarda o'z ijobiy natijasini berdi. Respublikamizdagi siyosiy partiyalar deyarli barcha okruglarda Qonunchilik palatasi deputatligiga o'z nomzodlarini ko'rsatdilar. 517 nafar nomzoddan 134 nafari O'zbekiston XDPdan, 123 nafari Adolat SDPdan, 125 nafari Milliy tiklanish DPdan, 135 nafari O'zLiDeP tomonidan taklif etildi. Saylov natijasiga ko'ra, O'zLiDeP — 53, O'zbekiston XDP — 32, Milliy tiklanish DP — 31, Adolat SDP — 19 nafarlik fraksiyalariga ega bo'ldilar.

2014-yilda bo'lib o'tgan saylovlarda O'zLiDePdan — 52, Milliy Tiklanish DPdan — 37, XDPdan — 26, "Adolat" SPdan — 20 nafar deputat saylandi.

¹³Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. —T.: "O'zbekiston", 2010. 37–38-b.

Siyosiy partiyaning “vakolatli vakili” instituta kiritilishi, saylov jarayonining barcha bosqichlarida deputatlikka nomzodlar ko’rsatgan siyosiy partiyalardan bittadan kuzatuvchining ishtiroki saylov kampaniyasining yanada ochiq-oydin, demokratik, qonuniy tartibda o’tishini ta’minlab berdi.

Demokratik yangilanishlar jarayonida siyosiy partiyalarga berilayotgan e’tibor jamiyatda ularga bildirilayotgan ishonchning bir ko’rinishidir. Shunday ekan, partiya va harakatlarning qonuniy faoliyat yuritishi sharti rasmiy hokimiyatga qarama-qarshi turish emas, balki uni qo’llab-quvvatlash, keng omma qatlamini, turli ijtimoiy guruhlarini va eng avvalo, inson manfaatlarini himoya qilishni o’zida aks ettirishdan iborat.

Faqat inson manfaatlaridan kelib chiqqan holda ish yuritishgina partiyaning doimiy va to’laqonli faoliyatini ta’minlaydi. Fuqarolarning ezgu ehtiyoji va tub manfaatlarini davlat manfaatlariga qiyoslash jamiyatning real holatini belgilaydi. Shuningdek, davlat hokimiyati bilan siyosiy partiya va harakatlar orasida kuchli hamjihatlikni qaror toptirish jamiyatda barqarorlikni ta’minlash, turlicha ijtimoiy guruhlar manfaatlarini aks ettirishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi.¹⁴

O’zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni barpo etish jarayonida siyosiy partiyalarning maqsadi, birinchi navbatda, partiya mafkurasi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, shaxs manfaatlarini, uning huquq va erkinliklarini ro’yobga chiqarish uchun faol hatti-harakatlarni amalga oshirish hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun esa oqilona tashkiliy mexanizmlarni yaratish va partiyalar faoliyatini qayta qurish talab etiladi.

¹⁴Jumayev R.Z. Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo’lida. –T.: “Sharq”, 1998. 34–35-b.

O'zbekiston siyosiy partiyalari oldida o'z dasturlarini yanada takomillashtirish, butun aholi va elektorat oldida o'zligini topishdek nihoyatda muhim vazifa turibdi. Shubhasiz, bunda partiyalar bir-biridan farq qiluvchi maqsad hamda vazifalar bilan birga xalq va millatni jipslashtiruvchi umumiy

g'oyalarga ega bo'lmog'i ham darkor. Ushbu maqsadlar yo'lida ularning faoliyatini huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Jamoat birlashmalari to'g'risida", "Siyosiy partiyalar to'g'risida", "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi qonunlar hisoblanadi. Shuningdek, asosiy hujjatlardan yana biri O'zbekiston Respublikasining "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonundir. Mazkur Konstitutsiyaviy qonun loyihasi 2006-yilning noyabrida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89-modda; 93-moddaning 15-bandi; 102-moddaning 2-qismi) o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi bilan birga davlatimiz rahbari tomonidan Oliy Majlis e'tiboriga havola etilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qonun borasidagi mazkur tashabbusi 2004-yildan boshlangan Parlament islohotining mantiqiy rivoji. siyosiy partiyalarning jamiyat va davlat qurilishidagi rolini oshirishga qaratilgan muhim sa'y-harakat bo'ldi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi umumxalq muhokamasidan o'tgach, 2007-yilning 11-aprelida qabul qilindi. 2008-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan bu qonun siyosiy partiyalar taraqqiyoti uchun huquqiy kafolatdir.

Konstitutsiyaviy qonun kuchga kirishi bilan siyosiy partiyalar davlat hokimiyatining qonunchilik-vakillik tarmog'i faoliyatiga nafaqat o'z

ta'sirini kuchaytirish.balki ijro hokimiyati bo'g'inlarini shakllantirish va ular faoliyatini nazorat qilishda bevosita ishtirok etish imkoniyatiga ham ega bo'ldilar. Mazkur qonun, shuningdek, ijro hokimiyatining markaziy va mahalliy organlarida o'z vakillariga ega siyosiy partiyalarning halol va amaliy raqobatini yana avj oldirishiga shart-sharoitni yuzaga keltirdi. Biroq, shuni ham ta'kidlash joizki, raqobatchikuch sifatida maydonga tushayotgan Parlament muxolifati o'z maqomiga ko'ra davlat hokimiyatiga qarshi chiqadigan siyosiy kuch hisoblanmaydi. Aksincha, u hokimiyatning qonun chiqaruvchi-vakillik tarmog'ida hukumatning faoliyat dasturlarini va ular ijrosini xolis tanqid qilish vazifasini bajaruvchi uzviy bo'g'inga aylanadi.

Hozirgi sharoitda siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, aholining, ayniqsa, saylov jarayonlarida xoxish-irodasi va fikrini ifodalash, markazda va joylarda davlat hokimiyati organlarini shakllantirishning muhim ta'sir o'tkazuvchi vositasiga aylanishi alohida ahamiyat kasb etadi.¹⁵ Mazkur qonunning qabulqilinishi va amalda qo'llanilishi natijasida siyosiy partiyalar markaz va joylarda, davlat va hokimiyat organlarini shakllantirish bilan birga jamoatchilik nazoratini ro'yobga chiqarishda ham katta imkoniyatlarga ega bo'ldilar. Shuningdek, hokimiyat vakillik organlarining ijro hokimiyati faoliyatini nazorat qilishi samaradorligi ortdi.Parlamentdagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining parlament nazoratini yanada faollashtirish orqali hukumatga ta'sir etish imkoniyati kengaydi.

Ushbu qonuning 6-moddasida O'zbekiston rahbari xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashidagi deputatlik (partiya)

¹⁵Karimov I.A.. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T. 16. –T.: “O'zbekiston”, 2008. 38-b.

guruhlarining har biri bilan maslahatlashib olgandan so'nggina hokim nomzodini tasdiqlash uchun taqdim etishi ko'rsatib o'tilgan. O'z-o'zidan ayonki, bu jarayonda deputatlik guruhlarining hokim nomzodiga qo'yilayotgan shaxshaqida erkin tanqidiy fikr bildirishi uchun imkoniyat vujudga keladi.

Konstitutsiyaviy qonunda ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, 7-moddaga binoan nazorat qilish vazifalari samaradorligini oshirish maqsadida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar Kengashlaridagi partiya guruhlariga viloyat va Toshkent shahar hokimi lavozimiga tasdiqlangan shaxslarning qoniqarsiz faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga asoslangan xulosalarni taqdim etish tashabbusi huquqi berilgan. Bunday tashabbus yetakchi partiya guruhlaridan tomonidan qo'llab-quvvatlangan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti butashabbusning xalq deputatlari Kengashidagi muhokamasini tayinlaydi va muhokama natijalariga muvofiqqaror qabul qiladi. Bu esa siyosiy partiyalarga ijroiya hokimiyatning barcha bo'g'inlarida bir xil huquqqa ta'sirga ega bo'lishga, hokimlar faoliyatini nazorat etish orqali muayyan hududlarni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlantirishda tashabbuskor va ta'sirchan kuchga aylanishga shart-sharoit yaratib beradi.

Umuman olganda, viloyat va Toshkent shahar hokimlarini tayinlash va tasdiqlashning zamonaviy tartibi hamda viloyat va Toshkent shahar hokimi faoliyatini mahalliy kengash deputatlari tomonidan nazorat qilinishi vazifasining takomillashganligi siyosiy partiyalarning joylardagi salohiyatini ro'yobga chiqarishda vakillik organlari samaradorligini kuchaytirishga ko'maklashdi. Fikrimizcha, Konstitutsiyaviy qonunning jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy xayotiga tatbiq etilishi, mamlakatimiz siyosiy

tizimini.xususan, siyosiy partiyalar faoliyatini yanada rivojlantirishga turtki berdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyatni demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, xalqimiz siyosiy-huquqiy ongini oshirish, ko'ppartiyaviylik tizimini takomillashtirish.davlathokimiyati va boshqaruvida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish bu jarayonda siyosiy partiyalar faolligini kuchaytirishga qaratilgan zaruriy shart-sharoitlarning vujudga kelishini talab qilmoqda. Mamlakatimiz rahbari Islom Karimov bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma majlisida bayon etgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" deb nomlangan ma'ruzasida ta'kidlab o'tdi. Ayniqsa, bu o'rinda mamlakat Bosh vaziri lavozimiga tayinlash va ozod etishda siyosiy partiyalarning jamiyatdagi o'rni va mas'uliyati oshishini yana bir bor e'tirof etish lozim. Hozirda siyosiy partiyalar va ularning parlamentdagi fraksiyalari faoliyatida mustaqillik, tashabbuskorlik yetishmayapti. Ular jamiyat va davlat ahamiyatiga molik muhim masalalar yechimini izlashda tashabbus ko'rsatmayaptilar, vaholanki, bunday masalalarning oqilona yechimini ularning o'zi ko'rsatib berishi lozim. Shu bois siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini yanada oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan quyidagi qonunchilik tashabbusi kiritildi: "O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi".¹⁶Konsepsiyada bildirilgan ushbu taklifning qonunchilikda o'z ifodasini topishi siyosiy partiyalar rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga o'z vazifalarini amalga oshirishida partiyalarning mas'uliyati ham bir necha barobar oshadi.

Konsepsiyada ilgari surilgan takliflar siyosiy partiyalarning davlat ahamiyatiga ega eng muhim masalalar yechimini topishdagi roli va ta'sirini kuchaytirish vazifasini kun tartibiga qo'ymoqda. "Shu munosabat bilan partiyalar aholi o'rtasida obro'-e'tibor qozonish maqsadida izchil ish olib borishi, siyosiy tajriba orttirishi, siyosiy yetuklikka intilishi va eng muhimi, moliyaviy mustaqillikka erishish, jamiyatda o'z o'rnini topish va o'zining doimiy saylovchilariga tayanish uchun faol harakat qilishi kerak. Dasturi vayo'nalishidan qati nazar, shak-shubhasiz, barcha partiyalarimiz mana shunday yo'lni bosib o'tishi muhim ahamiyatga ega... Odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlarning ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda bu tashkilotlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir".¹⁷

¹⁶Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2010. 12-b.

¹⁷Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. –T.: "O'zbekiston", 2005. 181– 182-b.

Siyosiy partiyalar va nodavlat. nohukumat jamoat tashkilotlarining jamiyatda obro'-e'tibori oshib, mavqei mustahkamlanishi bilan ular davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining bo'g'iniga aylanadi. Fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, siyosiy partiyalar tomonidan joylarda va markazda davlat va hokimiyat tuzilmalari ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi, birinchidan, ularning monopollashuvi (yakkahukmronligi)ni oldini oladi, ikkinchidan, inson huquq va erkinliklari hamda uchinchidan, shaxs manfaatlari davlat manfaatlaridan ustuvorligi ta'minlanadi. Bu borada mamlakatimizda salmoqli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shuni qayd etish lozimki, siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishdagi rolini kuchaytirish natijasida ijtimoiy-siyosiy tafakkurning o'sganligi, demokratik institutlarning takomillashganligi bundan keyin ham islohotlarni yanada chuqurlashtirish mumkinligidan dalolat beradi. Umuman olganda, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish "kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganligi belgisidir.

Ushbu holat inobatga olinib, 2014-yil 17-aprelda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Bun o'zgarishlar asosida Parlament quyi palatasida eng ko'p deputatlik o'rnini qo'lga kiritgan siyosiy partiya yoki keng miqdordagi deputatlik o'rinlarini egallagan siyosiy partiyalar Bosh vazir nomzodini taklif qilish huquqini qo'lga kiritadilar.

Bu, *birinchidan*, siyosiy partiyalarga parlament quyi palatasida eng ko'p o'rinni egallash uchun aholi hamda o'z elektorati doirasida kengtarg'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshrishni talab qiladi.

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek: “Odamlarning faolligini oshirish yo’li esa o’z navbatida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar, turli manfaatlarni ifoda etadigan siyosiy partiyalar faolligini oshirish bilan chambarchas bog’liq ekanini hayotning o’zi tasdiqlamoqda. Har qaysi siyosiy partiyaning jamiyatimizdagi kuchi ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy sohalarda taklif etgan va amalga oshirayotgan dasturlariningta’siri va ularni qo’llab-quvvatlayotgan tarafdorlari soni bilan o’lchanadi. Binobarin, partiyalar o’zining ijtimoiy-siyosiy faoliyatini aholi orasida qancha jonlantirib, kengaytirib borsa, xalqimiz va saylovchilarimizning siyosiy ongi va faolligi shuncha yuksalib. ularning islohot va o’zgarishlarga o’tkazadigan ta’siri tobora ortib boraveradi”.¹⁸

Ikkinchidan, bu — siyosiy partiyalar o’rtasidagi o’zaro raqobatning yanada kuchayishiga olib keladi. Bunda siyosiy partiyalar, yuqoridata’kidlaganimizdek, konstruktiv muxolifat pozitiyasida bo’lishni unutmasligi kerak.

Uchinchidan, siyosiy partiyalar o’z dasturlarini yana bir karra qayta ko’rib chiqishi lozim, deb o’ylaymiz. Chunki bu dasturlarda elektoratni jalb qila oladigan, saylovchilar ham mazkur partiya tomonidan ko’rsatilgan nomzodlarga o’z xoxish-istagi bilan ovoz beradigan g’oyalar mujassam bo’lmas ekan, unda partiya o’z oldiga qo’ygan maqsadga erisha olmaydi. Buning natijasida u yoki bu partiya tomonidan Qonunchilik palatasida ko’pchilik deputatlik o’rinlari egallanmay qoladi va o’z-o’zidan Bosh vazir nomzodini ko’rsatish huquqidan mahrum bo’ladi.

To’rtinchidan, bu — siyosiy partiyalardan saylangan deputatlar (siyosiy partiyalar fraksiyasi)ning siyosiy ongi va tafakkurining juda

¹⁸Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. –T.: “O’zbekiston”, 2007. 102–103-b.

yuqori bo'lishini talab qiladi. Agar deputatlar yetarli darajada siyosiy-huquqiy bilimga ega bo'lmasa yoki "uzoqni ko'ra olmasa" (Bosh vazir lavozimiga nomzodni taklif etishda), siyosiy partiya fraksiyasi tomonidan ko'r-ko'rona qarorlar qabul qilinishi mumkin. Chunki Bosh vazirlikka nomzod siyosiy partiya fraksiyasi yoki teng miqdorni egallagan siyosiy partiyalar fraksiyasiga o'z dasturini taqdim etadi. Albatta, bu o'rinda fraksiya a'zolari ham Bosh vazirlikka nomzodning dasturida bildirilgan vazifalarni tahlil qila olishi va uni munosib baholay bilishi lozim, degan fikrdamiz.

II. O'zbekistonda parlament islohotlari va parlament faoliyatining huquqiy asoslari

1. O'zbekiston Respublikasida parlament islohotlarining tarixiy zarurati va ikki palatali parlamentga o'tilishi

Parlamentarizmning takomillashib va mustahkamlanib borishi umumjahon tendensiyasi hisoblanadi. Parlament rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari uning oliy Vakillik va qonun chiqaruvchi organ sifatidagi tabiatining o'zida mavjuddir. Bugungi kunda deyarli barcha demokratik mamlakatlar uchun xos bo'lgan xususiyat shuki, parlament o'z vazifasini qanchalik samarali bajarsa va hokimiyatlar bo'linishi tizimida kuchliroq mavqega ega bo'lsa, huquqiy davlat va uning qonunchilik tizimi shunchalik samaraliroqdir.

Ikki palatali parlament g'oyasi hokimiyatlar bo'linish prinsipi hamda o'zaro tiyib turish va muvozanatni saqlash tizimiga juda yaqin turadi, farq faqat shundaki, bunda gap vakillik va qonunchilik hokimiyatining oliy organi sifatida parlamentning o'z tarkibiy tuzilishi haqida bormoqda. Amaliyotda ikki palatali parlamentga ega bo'lgan mamlakatlarning aksariyatida ikkala palataning vakolatlari o'zaro tiyib turish va muvozanatni saqlash tizimi asosida shakllantiriladi. Qoida tariqasida, quyi palata ancha faol, liberal, ko'pincha siyosiy partiyalar ishtiroki tufayli radikal hamdir. Yuqori palata konservativ posangi vazifasini o'taydi. Ikki palatali tizimning asosiy g'oyasi ana shu nisbatda tasavvur qilinadi.

Ikki palatali parlamentda boshqacha, masalan, davlatning federal tuzilishi bilan bog'lik xususiyat ham bo'lishi mumkinligiga qaramay, konservatizm elementiga ega parlament g'oyasi ancha uzoq tarixga ega. E.X. Xalilov ta'kidlaganidek, "...ikki palatali tizimni tanlashning asosiy sababi – davlatning federativ tuzilishidadir, deyish to'g'ri bo'lmaydi. Ikki palatali tizim federativ davlatlar paydo bo'lishidan birmuncha avval yuzaga kelgan va uning ildizlari uzoq tarixga ega".¹⁹ U XIII asr oxirlarida Lordlar palatasi ta'sis etilgan Angliyani tarixiy misol tariqasida keltiradi.

Aslida "yuqori palata aslo federatsiya subyektlarini ifodalash uchun paydo bo'lmaganligini"²⁰ko'rsatib o'tar ekan, L.V. Smirnyagin ham ayni shu fikrni bildiradi. U ham Buyuk Britaniyadagi Lordlar palatasini quyi Palata faoliyatiga xos bo'lgan keskinlik va shoshma-shosharlikni yumshatishga qaratilgan aristokratlar majlisi sifatida yuqori palataning timsoli deb hisoblaydi. Uning vaboshqa ko'pgina davlatshunoslarning fikricha, yumshatish - yuqori palataning bosh vazifasidir, vaholanki mintaqaviy hokimiyatlarning Vakilligi kelib chiqishi bo'yicha ham, ahamiyati jihatidan ham ikkinchi vazifadir. "Qonun ijodkorligini sekinlatish, parlament a'zolarini muammolar ichiga chuqurroq kirib borishga majbur qilish, uzoq yillarga mo'ljallangan qonunlarni qabul qilishda o'tkinchi mulohazalar ta'sirini kamaytirish – bu yuqori palataning mintaqaviy hokimiyatlar Vakilligi vazifasi bilan unchalikumumiylikka ega bo'lmagan eng muhim vazifasidir".²¹ Bu vazifa yuqori palatani shakllantirishga boshqacha yondashishni va deputatlarga boshqacha

¹⁹Halilov E.H. O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi oliy organi; soxta vakillikdan haqiqiy parlamentarizmga qadar. –T.; "O'zbekiston", 2001. 150-b.

²⁰Совет Федерации: эволюция статуса и функций / Отв.ред. Л.В. Смирнягин. –М.; Институт права и публичной политики, 2003. –С.9.

²¹Qarang: Совет Федерации: эволюция статуса и функций / Отв.ред. Л.В. Смирнягин. –М.; Институт права и публичной политики, 2003. –С.9.

talablar qo'yilishini taqozo etadi. Xususan, yuqori palataga tajribali siyosatchilarni, mamlakatning eng obro'li kishilarini, ayrim mamlakatlarda esa quyi palatadagiga qaraganda ancha uzoqroqmuddatga saylash rasm bo'lgan.

Ikki palatali parlament yuqori palata tufayli ancha barqaror vositadir, degan fikr bikameralizmni tushunishda hamma tomonidan qabul qilingan va asosiy fikr hisoblanadi.

Bundan tashqari, yuqori palataning rivojlanish tarixiga uning vakolatlari ko'lami kamayib borishi xususiyati xosdir. Masalan, Fransiya Respublika Kengashi 1946-yilgi Konstitutsiyaga ko'ra har narsaga qodir bo'lgan Senat Uchinchi respublikada ega bo'lgan vakolatlaridan mahrum bo'ldi. Yoki Yaponiyani olaylik: u yerda yuqori palata saqlab qolinganigaqaramay, quyi palataga yuqori palataning – Maslahatchilar palatasining vetosini bartaraf qilish imkoniyatini yaratadigan vakolatlar berilgan. Hukumat faqat quyi palata oldida javobgardir.²²

Aristokratik Vakillik yoki moliyaviy namoyandalar Vakilligi yo'li bilan parlamentning konservativ vazifasi ta'minlanishi o'zining klassik ko'rinishida faqat Buyuk Britaniyada (Lordlar palatasi) vaqisman Kanadada saqlanib qolgan.²³Biroq ayni shu Buyuk Britaniyada 1911 va 1949-yilgi ikkita hujjat Lordlar palatasining qonunchilik sohasidagi huquqlarini ancha cheklab qo'ygan.²⁴Yaqinda Toni Bler hukumatining

²²Конституции зарубежных государств. –М.: Издательство БЕК. – С.Х.

²³Шамбек Г.К. К вопросу о значении двухпалатой парламентской систем // Конституционное право: восточноевропейское обозрение. 2003. - №1. –С.3.

²⁴Qarang: Конституции зарубежных государств. –М.: Издательство БЕК. – С.Х.

qo'llab-quvvatlashi bilan islohot o'tkazilib, bu bir tomondan, valiahd perlar soni kamayishiga, ikkinchi tomondan, Lordlar palatasi tarkibida ham, yuqori palata vakolatlarida ham tub o'zgarishlarga olib keldi.²⁵

Hozirda yuqori palata turg'un (konservativ) elementining ta'minlanishi ko'proq demokratik shaklga ega. Mazkur holat yuqori palatani shakllantirishning alohida tarkibida, qonunchilik, nazorat, ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshrishda ishtirok etish sohasida yuqori palatalar vakolatini qonun yo'li bilan belgilashning asosiyyo'nalishlarida namoyon bo'lmoqda.

Qonunchilik sohasida yuqori palatalar, masalan, Rossiya, AQSH, Shveysariya yoki Italiyada bo'lgani singari o'z mavqei jihatidan quyi palatalar bilan tenglashtirilgan yohud Germaniya, Avstriya, Buyuk Britaniya va Irlandiyada bo'lgani singari kechiktiruvchi veto huquqiga ega. Misol uchun, AQSHda Kongressning har bir palatasi, quyi palata vakolatiga kiradigan ayrim masalalarni istisno etganda, istalgan masala yuzasidan har qanday qonun loyihasini uning muhokamasiga kiritish vakolatiga ega. Amalda palatalardan har biri boshqa palata tomonidan qabul qilingan qonunga qarshi ovoz berishi mumkin. Senat Vakillar palatasi taklif etgan u yoki bu qonun loyihasini tasdiqlamaslik huquqiga ega. Unga uning xususiyatini o'zgartiradigan tuzatishlar kiritish mumkin. Bu holda ikkala palata a'zolaridan iborat tarkibdagi kelishuv

²⁵Qarang: Шамбек Г.К. К вопросу о значении двухпалатой парламентской систем // Конституционное право: восточноевропейское обозрение. 2003. - №1. -С.3.

qo'mitasi qonun loyihasining ikkala tomonni qanoatlantiradigan o'zaro murosagakeltiradigan variantini ishlab chiqishi shart.²⁶

Ba'zi mamlakatlarda, masalan Belgiya va Yaponiyada yuqori palatalar qonun loyihalarini ishlab chiqish jarayonida maslahat ovozi huquqida ishtirok etishlari yoki, Niderlandiyada bo'lgani singari, quyi palata tomonidan qabul qilingan qonunlarning "sifatini nazorat qilish" deb ataluvchi jarayonda ishtirok etishlari mumkin. Ko'pincha yuqori palatalar quyi palatada qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Ayrim davlatlarda yuqori palataning vakolati sohasiga kirmaydigan qonunchilik sohalari belgilab qo'yilgan. Masalan, Hindiston va Avstriyada yuqori palatalar davlat moliyasini tartibga soluvchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilishda ishtirok etmaydi.²⁷ Rossiyada reglament qonun loyihasini ishlab chiqishga yuqori palatani jalb etish majburiyatini quyi palata zimmasiga yuklamaydi. Agar bu amaliyotda bo'lsa ham rasmiy mulohazalardan ko'ra, ko'proq tarkib topgan an'anaga muvofiq bo'ladi. Rossiyalik mutaxassislarning o'z fikriga ko'ra, yuqori palataga quyi palatadan qonun loyihasi emas, balki qonun kelib tushish holatining o'zi (garchi qonunga aylanish uchun hujjat hali yuqori palatada hamda mamlakat Prezidenti tomonidan ma'qullanishi kerak bo'lsa ham) yuqori palata uchun xos va odatiy xususiyatdir: "Shu asnoda Federatsiya Kengashining ham Prezidentining ham Qonunchilikdagi tutgan o'rnini ochiqdan-ochiq pasayadi".²⁸ Parlamentlarning aksariyatida ijro etuvchi hokimiyatga nisbatan nazorat qilish vazifalari va hukumatga ishonchsizlik votumi chiqarish imkoniyatlari, qoida tariqasida, quyi palatalar tasarrufidadir.

²⁶Qudratxo'jayev Sh. AQSHda qonunchilik hokimiyati// Xalq so'zi. – 2002-yil 7-mart.

²⁷Шамбек Г.К. К вопросу о значении двухпалатой парламентской системы // Конституционное право: восточноевропейское обозрение. 2003. - №1. –С.3.

²⁸Совет Федерации: эволюция статуса и функций / Отв.ред. Л.В. Смирнягин. –М.; Институт права и публичной политики, 2003. –С.17-18..

Shunga qaramay, yuqori palatalar faoliyatida ham nazorat qilishga oid vazifalarning kuchayishi umumiy yo'nalish hisoblanadi. Buning uchun yuqori palatalarga so'rov bilan murojaat qilish huquqi, rezolyutsiya qabul qilish huquqi, iltimosnoma (ariza) bilan chiqish huquqi beriladi, ayrim mamlakatlarda ular shuningdek tekshiruv o'tkazuvchi komissiyalar tuzish huquqidan foydalanishlari mumkin. Masalan, Germaniya va Avstriyaning yuqori palatalari tekshirish o'tkazuvchi komissiyalarni tuzish huquqiga ega, ayni paytda Italiya va Ispaniya senatlari bunday huquqqa ega emas. "Parlamentarizm: xorijiy mamlakatlar tajribasi" kitobi²⁹ tuzuvchilari parlament tekshirishi nazoratning eng samarali shakli ekanligini qayd etganlar. Bunday huquqqa ikkala palata ega. Bo'lgan AQSH misol qilib keltirilgan. Kongress tomonidan tuzilgan qo'mitalar va komissiyalar zarur hujjatlar va materiallarni talab qilishga, istalgan shaxsni, shu jumladan prezidentni ham, chaqiruv qog'ozi orqali o'tkaziladigan eshitishlarga jalb etishga, guvoh sifatida so'roq qilishga haqlidir va hokazo. Chaqiruv bo'yicha kelmaslik sud ta'qibiga sabab bo'lishi mumkin. Senat yoki Vakillar palatasining qaroriga binoan muayyan shaxslarga tegishli ish sudga oshirilishi mumkin. Byudjet ajratmalarini qisqartirish sanksiya (jazo chorasi) sifatida qo'llanilishi mumkin. Mazkur kitob tuzuvchilari yozganidek, parlament tekshirishi, bu ijro etuvchi va sud hokimiyati, mansabdor shaxslar ustidan, konstitutsiya va qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratning oliy shaklidir.

Ishonchsizlik votumi asosan quyi palata tomonidan e'lon qilinadi. Bundan shunday huquqqa ega bo'lgan Italiya Senati kamdan-kam istisnodir. Yuqori palatalar aksariyat hollarda konstitutsiyaviy sudga so'rov bilan murojaat qilish huquqiga ega. Vaholanki hisob palatasi

²⁹Parlamentarizm: xorijiy mamlakatlar tajribasi// R.A. Alimovning umumiy tahriri ostida. –T.: "Sharq", 2002. 32-33-b.

vositasida hisob varaqlarni va moliyaviy ishlar yuritilishini nazorat qilish tashabbusi asosan quyi palata vakolatiga taalluqlidir. Yuqori palatalar, masalan, Rossiyada bo'lgani singari, kadrlarni tayinlash bilan bog'lik vakolatlarga ham ega. Yuqori palataning sudga oid vakolatlari faqat Buyuk Britaniyaning Lordlar palatasida bor. Amerika Senatida bunday vakolat faqat impichment e'lon qilishda namoyon bo'ladi, ya'ni Vakillar palatasi tomonidan oliy mansabdor shaxslarga (shu jumladan Prezidentga) qarshi ayblar qo'yilganda uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovoz bilan ularni lavozimidan bo'shatish to'g'risida qaror qabul qilishdan iborat vakolatida ifodalanadi.³⁰

Yuridik fanlari doktori A.S.Tursunovning yozishicha ikki palatali parlamentni qaror toptirish bilan bog'lik masalalarni qonuniy tartibga solish va mazkur muammolar yuzasidan xalqaro tajribani o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Qator ilg'or mamlakatlarning ikki palatali parlamentlar tuzish tajribalariga to'xtalib o'tish lozim.³¹

Yuqori palataning belgilangan maqsadini zamonaviy ma'noda tushunish parlamentarizmning demokratik mohiyati bilan uzviy bog'liqdir. Konservativ element va hududiy Vakillik qonunchilik va Vakillik hokimiyatini samarali ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan o'zaro birbirini to'ldiruvchi vazifalarga ega. Yuqori palata, o'zining barcha vazifalari bilan birgalikda, aslini olganda, ikki palatali tizimning ajralmas elementigina emas, balki bikameralizmning asosiy hal qiluvchi belgisi ham bo'lib, busiz "ikki palatali parlament" o'zining har qanday ma'nosi va ahamiyatini yo'qotadi.

³⁰Шамбек Г.К. К вопросу о значении двухпалатой парламентской систем // Конституционное право: восточноевропейское обозрение. 2003. - №1. -С.3.

³¹Jamiyat va boshqaruv jurnali. 2002-y. 2-soni. "Xorij parlamentlari" 4-7-betlar.

Shu jihatdan O'zbekistondagi parlament islohotlarining mantiqiy kechishi parlamentarizm rivojlanishining umumjahon tendensiyalari bilan to'la hamohangdir. Ikki palatali tizimga o'tish demokratik islohotlar sifat jihatidan yangi bosqichining o'ziga, xos marrasi bo'lib, bu huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati institutsional negizining rivoj topib borish xususiyati bilan ajralib turadi.

Parlament islohotining maqsadi Vakillikni kengaytirishdan va qonunchilik jarayonining samaradorligini oshirishdan iborat ekanligi nazarda tutilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasida parlament islohotini o'tkazish g'oyasini birinchi bo'lib ilgari surib, ikki palatali parlamentni shakllantirish zarurligini asoslab berar ekan, avvalo, Vakillik subyektlari va usullarini kengaytirish muammosi haqida so'z yuritgan edi. Aslini olganda, gap umumxalq (siyosiy) va hududiy Vakillikning tarkibiy-funksional bo'linishi vaqti kelgani, parlamentning qonunchilikka, nazoratga oid va siyosiy faoliyatini kuchaytirish to'g'risida borgan edi. Bu g'oya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" deb nomlangan ma'ruzasida belgilangan davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish yo'li mantiqidan kelib chiqadi. Ma'ruzada hokimiyatning turli tarmoqlarini bir-biridan ajratishning konstitutsiyaviy tamoyilini amalda rivojlantirish va kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish konsepsiyasini ro'yobga chiqarish maqsadi dolzarb qilib qo'yildi.³² Bu fikrlar Prezidentning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston

³²Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. –T.: "O'zbekiston", 1999. 386-387-b.

Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi dasturiy ma’ruzasida o’z aksini topdi.³³

Prezident ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida ikki palatali parlamentga o’tish to’g’risidagi taklifni kiritganda yuqori palatani tashkil etishning bosh maqsadi hududiy Vakillikni joriy etish zarurligiga asoslangan edi. Xususan, Prezident yuqori palata tarkibi viloyatlar, shaharlar va tumanlardan mahalliy Kengashlarga saylangan deputatlardan iborat bo’lishini tasavvur qilgan. Yuqori palataga saylangan deputatlar o’z viloyati manfaatlarini himoya qilishlari kerak. Bu vazifa asosan quyi palatada tayyorlangan qonunlarni ko’rib chiqish vositasida ro’yobga chiqarilishi kerak. Shuningdek yuqori palataga har qaysi viloyatdan saylangan deputatlarning soni bir xil bo’lishini belgilab qo’yish taklif qilindi. Bunda Prezident yuqori palata faoliyatining bosh prinsipini shunday qayd etdi – yuqori palata davlat faoliyatining barcha sohalariga teng ko’z bilan qarab, xalq manfaatlarini bir xilda himoya qilishi kerak.³⁴

Keyinroq ikki palatali parlament tuzish va O’zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib o’zgartirish to’g’risidagi umumxalq referendumini munosabati bilan ommaviy axborot vositalarining xodimlarga bergan intervyusida Prezident yuqori palata zimmasiga yuklatiladigan vazifalar mohiyatini oydinlashtirdi.³⁵ Birinchidan, yuqori palatada mahalliy deputatlar vakolatlarining ifodalanishi g’oyasida ularning davlatni boshqarish jarayoniga ta’sir ko’rsatishini kengaytirishga intilish aks etgan. Chunonchi, Prezident ta’kidlaganki, yuqori palata bevosita qonunlarni

³³Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. –T.: “O’zbekiston”, 2000. 330-351-betlar

³⁴Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. –T.: “O’zbekiston”, 2000. 483-484-b.

³⁵Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. –T.Yu. –T.: “O’zbekiston”, 2002. 184-195-betlar.

yaratishda quyi palata bilan bir vaqtda ishtirok etmasligi kerak. Uning asosiy vazifasi viloyatlar, tumanlar va shaharlar deputatlari Vakillari orqali mahalliy hokimiyat manfaatlarini ifodalashda hamda quyi palata taqdim etgan u yoki bu qonunni ma'qullash yoki ma'qullamaslikdan iborat bo'ladi. Yuqori palata "o'z hududlari manfaatlaridan kelib chiqqan holda qonunchilik jarayonida ishtirok etadi."³⁶ Ikkinchidan, oliy Vakillik organlari oliy hokimiyat organlarini shakllantirish bilan bog'liq siyosiy vazifalarini yuqori palata qo'lida mujassamlashtirish mo'ljallanadi. Bu xususan Prezident qayd etadiki, "Demokratik jamiyat sari yaqinlashib borar ekanmiz, kelajakda O'zbekiston Prezidentining ayrim vakolatlari ham yuqori palataga beriladi. Tegishli ravishda, ijroiya hokimiyatining ko'pgina yo'nalishlari Prezidentga emas, yuqori palataga bo'ysundiriladi".³⁷

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish vazifalarini inobatga olib chet mamlakatlar tajribasini, parlament ishining samaradorligini oshirish ehtiyojlarini o'rganish asosida ikki palatali parlamentning tegishli qonunchilik negizini shakllantirish yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirildi. Xususan, yuqori palataning asosiy vazifalari "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkilotilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi,³⁸ "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi³⁹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonunlarida, "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish

³⁶Qarang: Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. –T.Yu. –T.: "O'zbekiston", 2002. 185-b.

³⁷Qarang: Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. –T.Yu. –T.: "O'zbekiston", 2002. 188-b.

³⁸O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. № 4-5. 2002. 60-modda.

³⁹O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. № 4-5. 2002. 213-modda.

to'g'risida''gi qonunda⁴⁰ Senatning mutlaq vakolatlarini qonunchilik yo'li bilan belgilab qo'yishda o'zining huquqiy ifodasini topdi.

Insoniyat huquqiy tafakkurining mahsuli hisoblangan hamda jamiyatning umummilliy vakillik muassasasi sifatida dunyoga kelgan parlament uzoq yillar davomidagi tarixga ega va uning ildizlari XII-XIII asrlardagi ingliz parlamenti va ispan korteslariga borib taqaladi. Parlament so'zining lug'aviy ma'nosi fransuz tilidan olingan bo'lib, "gapirmoq" ma'nosini anglatadi. Parlamentarizm katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi va uning chinakam tarixi burjua inqiloblari davridan boshlanadi.

Endilikda aksariyat mamlakatlarning parlament institutiga ega ekanligini ta'kidlab o'tmoq joiz. Hozir yer kurrasidagi 230 ga yaqin davlatning qariyb 177 tasida oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi-parlamentlar bor.

Hozirgi zamon parlamentlari o'zlarining tuzilishi, vakolatlarining hajmi, ijtimoiy tarkibi, o'z mamlakatlari siyosiy tizimida tutgan o'rni, saylanish tartibi mavqei bilan bir-birlaridan ajralib turadilar. Ular hatto nomlanishi, deputatlarining soni bilan ham farq qiladilar, masalan: AQSHda 535 deputatdan iborat Kongress, Xitoy Xalq Respublikasidagi Umumxitoy Xalq vakillari majlisida 2979 a'zo, Rossiyada 626 deputatdan iborat Federal Majlis, Misrda 454 deputatli Xalq Assambleyasi, Isroilda 120 a'zodan iborat Knesset, Islandiyada 63 a'zodan iborat Altningni misol qilib ko'rsatish mumkin. Jahon parlamentlarining ko'pchiligi bir palatali tuzilishga ega. Yer kurrasidagi 65 ta davlatda esa, ikki palatali oliy vakillik organlari mavjud. Odatda, ikki palatali parlamentning palatalaridan biri ko'pincha "quyi palata" deb yuritilib, u xalqning yagona irodasini ifodalaydi. (AQSHda –Vakillar palatasi, Fransiyada – Millat

⁴⁰O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. № 4-5. 2002. 27-modda.

Majlisi), boshqasi esa "yuqori palata" deb atalib, u davlatning tarkibiy qism (hudud)larining manfaatlarini ifodalaydi. Parlamentlarning bunday tuzilishi muqim demokratik an'analar hamda federativ davlat tuzilishiga ega bo'lgan mamlakatlarga xosdir. Masalan, shu kabi parlamentlar AQSH, GFR, Braziliya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va boshqalarda faoliyat yurgizmoqdalar.

Jamiyat manfaatlarining ifodachisi bo'lmish parlamentlar, aholining turli ijtimoiy qatlamlari guruhlarining vakillaridan tashkil topadilar. Ko'rinib turibdiki, dunyodagi parlamentlar rang-barang, ammo ular o'z mamlakatlarida muhim ijtimoiy vazifa-qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-moddasida, davlat hokimiyatining birdan-bir manbai - xalq nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishligi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida aytilganidek, davlat hokimiyatining tizimi-qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanadi. Unga ko'ra, davlat funksiyalari qonun chiqaruvchi organ – Oliy Majlis, davlat va ijroiya hokimiyati rahbari – O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va sud hokimiyati o'rtasida taqsimlanadi. O'zbekiston Oliy Majlisi esa davlatning boshqa idoralari bilan hamkorlik qilish bilan birga, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Hokimiyatlar taqsimlanishi nazariyasida qonun chiqaruvchi hokimiyat alohida o'rin tutadi. Konstitutsiyamizda kuchli qonun chiqaruvchi hokimiyatni tashkil etishga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati – besh yil.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning X sessiyasi (2002-yil 12-dekabr) “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tugrisida» va “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senat to'g'risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunlarning qabul qilinishi bilan ikki palatali parlament shakllantirishning asosiy huquqiy asoslarini yaratish jarayoni muhim ahamiyat kasb etdi.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunga binoan "Qonunchilik palatasi" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasidir. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylash huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanishi tufayli qonun chiqaruvchi hokimiyat katta vakolatlarga ega. Xalq hokimiyatni ayni saylov asosida o'z vakillariga topshiradi va vakolatli organlarni davlat hokimiyatini amalga oshirishga vakil qiladi. Bu vakolatli organlar davlat

hokimiyati mexanizmida birlamchi ekanligi, ularning ustuvorligi hamda ustunligi to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining shakllanish tartibi va parlament faoliyatining huquqiy asoslari

A.P.Lyubimovning “Rossiya parlament huquqi” (“Парламентское право России”)⁴¹ kitobida palatalarni shakllantirish tartibi Federal Majlis tuzilmasi masalalari bilan birgalikda ko'rib chiqiladi. Xususan, yuqori palatani (Federatsiya Kengashini) shakllantirish xususiyatlari, quyi palataga (Davlat Dumasiga) saylovni tashkil etish va o'tkazish, Rossiya Federatsiyasi Markaziy saylov komissiyasini shakllantirish va uning faoliyati tartibi batafsil ochib beriladi. Boshqa bir misol –“Federatsiya Kengashi: Maqom va vazifalar evolyusiyasi” (“Совет Федерации: Эволюция статуса и функций”) monografiyasida Federatsiya Kengashini shakllantirish masalalariga alohida bobbag'ishlangan bo'lib, unda 2000-yil 5-avgustda qabul qilingan “Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisining Federatsiya Kengashini shakllantirish tartibi to'g'risida”gi Federal qonun markaziy masala bo'lgan alohida bob hamda Federatsiya Kengashini shakllantirish va almashlab turish masalalariga bag'ishlangan ikkita bo'lim bor.⁴²

Ayrim ishlarda, masalan, O.N.Bulakovning “Parlament huquqi” risolasida⁴³ yokimualliflar jamoasining “Парламентское право России” kitobida⁴⁴ palatalarning mansabdor shaxslarini yangi saylangan deputatlar yoki yuqori palata a'zolari tomonidan saylashning ichki tartibini bayon qilish bilan cheklaniladi.

⁴¹Любимов А.П. Парламентское право России. –М.: Издательство-книготорговый центр “Маркетинг”, 2002. – С.44-57.

⁴²Совет Федерации: эволюция статуса и функций / Отв.ред. Л.В. Смирнягин. –М.; Институт права и публичной политики, 2003. –С.67-124, 124-154.

⁴³Булаков О.П. Парламентское право /Под ред. д.ю.н. проф. Ю.А. Дмитриева. –М.: Юриспруденция, 2002, С.25-33, 48-54

⁴⁴Qarang: Совет Федерации: эволюция статуса и функций / Отв.ред. Л.В. Смирнягин. –М.; Институт права и публичной политики, 2003. –С.67-124-154...

Yana bir o'rinli misol. "Конституционное (государственное) право зарубежных страна"⁴⁵ kitobida "parlament huquqi tushunchasiga ta'rif berishda parlamentlarning tashkil etilishi va ular faoliyatining ayrim tomonlarini tartibga soluvchi normalar haqida, parlamentlar va ular palatalarining ichki hamda muayyan darajada tashqi munosabatlarini tartibga soluvchi reglamentlari to'g'risida so'z yuritiladi. Shuningdek pretsedentlari – parlamentlar, palatalar yoki ular raislarining bir martalik va asosan tartib-taomil xususiyatiga (ingliz-saksonhuquq tizimidagi mamlakatlar uchun) ega bo'lgan qarorlari haqida bayon qilinadi. Bunda parlament huquqi palatalarni shakllantirish tartibi haqidagi qoidalarni o'z ichiga olishi ham ta'rifda ko'rsatib o'tilmaydi. Vaholanki, bu haqda boshqa kontekstda – parlamentning tuzilishi va uning palatalarining tashkil etilishi ko'rib chiqilayotganda so'z yuritiladi.⁴⁶

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatini shakllantirish tartibi 2003-yil 29-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonun bilan tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatihududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar vashaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at,

⁴⁵Конституционное (государственное) правозарубежных стран. –В.4-хтомах. –Т.2, "Отв.ред. Б.Аю Страшун. – М.: Издательство БЕК 1995. С.199-130.

⁴⁶Конституционное (государственное) правозарубежных стран. –В.4-хтомах. –Т.2, "Отв.ред. Б.Аю Страшун. – М.: Издательство БЕК 1995. С.199-130.

adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Konstitutsiya parlament deputatlarining hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyalilik asosida saylanishini muhim konstitutsiyaviy prinsip sifatida mustahkamlaydi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovini o'tkazuvchi saylov okruglari O'zbekistonning butun hududida saylovchilar soniga qarab teng holda tuziladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas deb ko'rsatilgan.

“O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisga saylov to'g'risida”gi qonunining 25-moddasida Deputatlikka nomzodlarga quyidagi talablar qo'yilgan: sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar;

saylov kuniga qadar so'nggi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashamagan fuqarolar;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, Milliy Xavfsizlik Xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari;

diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari deputatlikka nomzod etib ro'yxatga olinmaydilar.

Hozirda amalda bo'lgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylanish huquqiga saylov kuniga 25 yoshga to'lgan fuqarolar ega bo'lishi mumkin. Yosh senzining bunday belgilanishi shu bilan izohlanadiki, deputat ozmi-ko'pmi ma'lum hayot tajribasiga ega bo'lishi, o'zini davlat va jamoat faoliyatida ko'rsata olishi lozim. Bu masala bir qancha xorijiy mamlakatlarning Konstitutsiyalari vaqonunchiligida ham deyarlik shunday hal etilgan. AQSH Konstitutsiyasida 25 yoshga to'lmagan shaxs Kongressning Vakillar palatasininig a'zosi bo'lishi mumkin emas. Yaponiya parlamentining vakillar palatasiga 25 yoshga to'lmagan, maslahatchilar Palatasiga esa 30 yoshga to'lgan fuqarolar passiv saylov huquqidan foydalana olishlari mumkin. Shuni ham aytish joizki, jahon tajribasida passiv saylov huquqining bundan ham yuqori senzlari ma'lum.

2004-yilning 26-dekabrida mamlakatimizda ilk bor O'zbekiston Respublikasining ikki palatali parlamenti– Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylovlar bo'lib o'tdi. Mazkur saylovlarda beshta siyosiy partiya vatashabbuskor guruhlar o'zlarining deputatlikka qo'ygan nomzodlari uchun kurash olib boradilar.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar hamda saylovchilarning mustaqil tashabbuskor guruhlar taqdim etgan nomzodlarni Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olish yakunlari bilan bog'liq ma'lumotlarni (jadvallarda) berib o'tishni joiz deb bildik:⁴⁷

⁴⁷Ushbu ma'lumotlar Markaziy Saylov Komissiyasining www.elektrons.uz rasmiy saytidan olingan.

1-jadval. Deputatlik nomzodlarning partiyaga mansubligi

№	Siyosiy partiyalar va saylovchilarning mustaqil tashabbuskor guruhlar	Ro'yxatga olingan deputatlikka nomzodlarning soni	Umumiy dep. nomzodlar soniga foizlardagi nisbati
1	O'zbekiston Xalq Demokratik partiyasi	118	22,8
2	O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi	74	14,3
3	O'zbekiston Milliy Tiklanish demokratik partiyasi	61	11,8
4	O'zbekiston Fidokorlar ,illi demokratik partiyasi	89	17,2
5	O'zbekiston Liberal-Demokratik partiyasi	119	23
6	Saylovchilarning mustaqil tashabbuskor guruhlar	56	10,8
	Jami	517	100

Yuqoridan ko'rinib turibdiki, siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan nomzodlar barcha deputatlikka nomzodlarning 87,2 % ni tashkil qiladi.

2004-yil 26-dekabr va 2005-yil 9-yanvarda takroriy ovoz berish natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining barcha 120 deputati saylandi va ro'yxatga olindi. Saylovda 489 deputatlikka nomzod, shu jumladan siyosiy partiyalardan 435 va

saylovchilarning tashabbuskor guruhlardan mustaqil nomzodlar 56 kishi ishtirok etdi. 2004-yil 26-dekabrdagi asosiy saylovda 12197159 (85,1%) saylovchi, joriy yil 9-yanvarida esa 5400000 dan ortiq kishi yoki takroriy ovoz berishda ishtirok etish huquqiga ega saylovchilarning qariyb 80% ishtirok etdi.

Qonunchilik palatasiga nomzod qo'yilgan xotin-qizlar jami 159 kishi kuchli intiluvchanlik va yuksak professionalizmni namoyish etdi, siyosiy yetuklik, aql-zakovat raqiblaridan qolishmadi. Natijada qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning qariyb 18 % ni xotin-qizlar tashkil etdi, bu esa 1999-yilda Oliy Majlisga bo'lgan saylovlaridagidan ikki yarim baravar ko'pdir.

Tashabbuskor guruhlardan ko'rsatilgan 56 nomzoddan 14 kishi deputatlikka saylandi, qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar orasidan ular 11,6%ni tashkil etdi.

Saylangan deputatlar orasida 18,3% —yuristlar, 21,7% — iqtisodchilar. Deputatlarning 10% sanoat, qurilish, transport va aloqa sohasi vakillari, 7,5% kishloqxo'jaligi vakillari, 12,5% tadbirkorlar, 20% ta'lim, fan, madaniyat va sog'likni saqlash xodimlari, 16% nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari.

Bu o'zgarishlar eng avvalo Qonunchilik palatasining doimiy, professional asosida ish olib borishidir. Bu palataga a'zo bo'lish uchun asosiy da'vogarlar sifatida siyosiy partiyalar va saylovchilarning tashabbus guruhlarini maydoniga chiqadi", - deb ko'rsatadi I.A.Karimov.

Bu palataga saylangan deputat siyosiy jarayonda faol ishtirok etib, professional nuqtai-nazardan mana shu qonun chiqaruvchilik, qonun yaratuvchilik va qonun ijod qilish ishiga mukammal yetarli tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslar bo'lishi lozim.

Yuqori-Senatorlar palatasi esa territorial subyektlar – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning har biridan 6 tadan, hamda Prezidentning o'zi tomonidan tayinlanadigan o'n olti nafar el-yurt obro'-e'tiborini qozongan, ko'zga ko'ringan kishilardan tarkib topadi.

Prezident I.A.Karimovning Sessiyada so'zlagan nutqida ko'rsatilganidek, “yuqori palata a'zolari joylardagi vaziyatdan yaxshi xabardor, ...ularni saylangan kengashlar bilan uzviy aloqa bog'lab turuvchi”, ko'proq minnatdorlar manfaatlarini ifoda etadigan va himoya qiladigan deputatlardan iborat bo'ladi. “Senat quyi palata bilan birgalikda bevosita qonun yaratish ishi bilan shug'ullanmasligi lozim”, balki unga saylangan har bir Senator Qonunchilik palatasi ishlab chiqqan vataqdim etgan qonunlarni ma'qullashi yoki rad qilish orqali, ham o'z mintaqasi manfaatlarini hisobga olgan holda, hamda butun mamlakatimiz – O'zbekiston taraqqiyoti manfaatlarini hisobga olgan holda qonunlarni yaratishda ishtirok etadi.

O'zbekiston Parlamentidagi Qonunchilik palatasi va Senat o'rtasidagi oqilona muvozanat ana shunday konstitutsiyaviy-huquqiy nazariy, hamda huquq amaliyoti asosiga tayanadi. Bu esa bozor iqtisodiyotiga o'tish, erkinlashtirilgan “Ochiq demokratik jamiyat” qurishning birinchi konstitutsiyaviy huquqiy asosi va kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Senat parlament huquqining eng muhim subyektlaridan biri sifatida o'zining qonunlarda nazarda tutilgan prinsiplari va normalari majmuiga ega. Parlamentning tashkiliy tuzilishi tizimida Senat parlament huquqining Senat Raisi, Kengash, Qo'mitalar va

komissiyalar, senatorlar singari subyektlarining tuzilishi va faoliyatini tartibga soluvchi normalarni huquqiy maydonida qamrab olgan organ hisoblanadi.

Bunda Senatni huquqiy tartibga solish asoslarini parlament huquqi tizimida ajratish faqat subyekt jihatidan yondashuv bilangina emas, balki yuqori palata bajaradigan vazifalarning o'ziga xos xususiyatlari, mutlaq vakolatlarining xususiyati, uning ishining o'ziga xos tashkiliy shakli va uni shakllantirish tartibi bilan bog'liqdir. Bizningcha, ushbu o'ziga xos xususiyatlar tegishli prinsiplar va normalarni qonunchilik yo'li bilan rasmiylashtirishga alohida-alohida yondashuvga asos bo'ldi. Shu sababli Senatni huquqiy tartibga solish manbalari sifatida (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,⁴⁸ ikkala palata xususida so'z yuritilgan "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonun, shuningdek "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonun bilan bir qatorda) alohida holda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senat to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonun va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglament to'g'risida"gi Qonun ishtirok etadi.

Konstitutsiyada Senat to'g'risidagi qoidalar moddalarda alohida-alohida va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risidagi qoidalar bilan bir qatorda joy olgan. Oxirgi holat Parlamentning birligi prinsipi, oliy Vakillik va Qonunchilik organi sifatida uning demokratik tabiati bo'linmasligi, shuningdek yuridik texnika talablaridan kelib chiqadi. Asosiy Qonunga kiritiladigan

⁴⁸O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq. ²O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarni hisobga olgan holda.

o'zgartishlar boshqa moddalarning umumiy tuzilishi va tartibini buzmasligi kerak edi.

Konstitutsiya moddalari quyidagi masalalarni tartibga soladi:

- Parlamentning tarkibiy tuzilishi va palatalar vakolatlarining muddati (76-modda);
- shakllantirish (77,97,117);
- birgalikdagi vakolatlar (78-modda);
- Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari (79-modda);
- Senatning mutlaq vakolatlari (80-modsa);
- palatalar ishini tashkil etish va uning shakllari (81-modda);
- palatalar tomonidan hujjatlarning qabul qilinishi (82-modda);
- qonunchilik tashabbusi huquqlari (83-modda);
- qonunningqabul qilinishi (84-modda);
- Qonunchilik palatasining Spikerini va uning o'rinbosarlarini saylash, uning vakolatlarini belgilash (85-modda);
- Senat Raisini va uning o'rinbosarlarini saylash, uning vakolatlarini belgilash (86-modda);
- palatalarningqo'mitalari va komissiyalarini saylash, ularning asosiy vazifalarini belgilash (87-modda);
- deputatlik va senatorlik faoliyatining mundarijasi, dahlsizlik huquqlari (88- modda);
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining palatalarni tarqatib yuborish huquqi va undan foydalanish tartibi (95-modda);
- Oliy Majlis tomonidan Prezident vazifasini vaqtincha bajaruvchini favqulodda saylash (96-modda);
- soliqlarni belgilash (123-modda);
- Konstitutsiyani o'zgartirishlar kiritish tartibi (127-modda);

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritish to'g'risidagi qonunni qabul qilish muddatlarining belgilanishi (128-modda).

Bunda palatalardan bittasi asosiy subyekt bo'lgan alohida-alohida moddalarda palatalarning faqat mutlaq vakolatlari (79, 80-moddalar), shuningdek Qonunchilik palatasining Spikerini, Senat Raisini saylash va ularning vakolatlarini belgilash (85, 86-moddalar) masalalari mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati maqomining ancha batafsil ta'rifi, Senat faoliyatining tashkil etilishiga, uning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hamda boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik qilishi bo'yicha munosabatlarning tartibga solinishi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonunidan joy olgan.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida"gi Qonun Senat tomonidan o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish uchun asos bo'ladi. Qonun to'qqizta bo'limdan iborat. Qonunda: yuqori palata faoliyatini tashkil etishning huquqiy asosi va asosiy prinsiplari, faoliyatning tashkiliy shakli, Senat Raisini va uning o'rinbosarlarini saylash tartibi, shuningdek ularni muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish shartlari, Senat Kengashini tuzish va uning tarkibi, qo'mitalar tuzish tartibi va ularning ro'yxati komissiyalarni tuzish tartibi belgilangan. Qonunda shuningdek Senat majlisida masalalarni, qonunlarni va Senat qarorlarini ko'rib chiqish tartibi, O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qabul qilish, mansabdor shaxslarni

tayinlash (saylash), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini tasdiqlash to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqish, nazorat qilish sohasidagi vakolatlarni amalga oshirish tartibga solinadi. Shuningdek Senatning xalqaro aloqalar sohasidagi huquqlari hamda Senat faoliyati bilan bog'lik xarajatlar smetasini tasdiqlash tartibi ko'rib chiqiladi.

Biroq palatalar maqomi, ular faoliyatining tashkil etilishi, ularning o'zga davlat organlari bilan o'zaro aloqasi va boshqa shu singarilarni tartibga soluvchi asosiy qoidalarining qonunchilik yo'li bilan alohida-alohida mustahkamlab qo'yilishini o'rinli deb bo'lmaydi.

Ushbu masalaga qonunchilik texnikasi nuqtai nazaridan qaralsa, tegishli qonunchilik tuzilmasini tuzib chiqishning maqbulligi bilan bog'lik muammoni payqash mumkin emas. Avvalo gap Parlament palatalari to'g'risidagi mazkur hujjatlarning alohida-alohidaligi munosabati bilan yuzaga keladigan takroriylik haqida bormoqda. Shuningdek parlament huquqining prinsiplari va normalarini huquqiy qo'llanish qulayligi nuqtai nazaridan qiyinchiliklar tug'iladi. Garchi, aslini olganda, ayni bitta normahaqida so'z borsa ham har doim ikkita hujjatga ishora qilish zaruriyati yuzaga keladi.

Xususan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunlarda palatalarning birgalikdagi tasarrufiga taalluqli vakolatlar (8-moddalar); palatalarning qo'shma majlislari (11-moddalar); parlament so'rovi (12-moddalar); kelishuv komissiyasi (tegishlicha 25 va 30-moddalar); qonunni imzolash va uni e'lon qilish (27 va 32-moddalar) to'g'risidagi moddalarda ifodalangan mutlaqo bir xil normalar mavjud.

Ko'rsatib o'tilgan qonunlarda shuningdek mazmunga putur yetkazmagan holda tegishli normaning subyeksi sifatida boshqa palatani vergul qo'yib kiritish mumkin bo'lgan normalar ham bor. Masalan, ikkala qonunning 3-moddasi shunday tahrirga ega: "Qonunchilik palatasi faoliyatining tartibi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilanadi" hamda "Senat faoliyatining tartibi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu qonun va boshqa qonunlar bilan belgilanadi".

Tegishlicha agar yagona hujjat yaratish zarurati bor deb tahmin qilinsa, unda ana shu ikkala modda qo'shilganda quyidagicha bo'ladi:

"Qonunchilik palatasi va Senat faoliyatining tartibi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilanadi".

Yoki boshqa misol –ikkala qonunning 4-moddasi quyidagicha tahrirda berilgan: "Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazish tartibi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi" hamda "Senatni shakllantirish tartibi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi". Tegishlicha qo'shilganda quyidagicha bo'ladi: "Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazish va Senatni shakllantirish tartibi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi".

Faqat subyektlari bilan farqlanuvchi bir xildagi normalarni o'z ichiga olgan va birlashtirish ularning asosiy mazmunini o'zgartirishni talab qilmaydigan shunday moddalar jumlasiga "O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi qonunlarning quyidagi moddalarini kiritish kerak bo'ladi:

1. Qonunning maqsadlari to'g'risidagi (ikkala qonunda 1-moddalar⁴⁹);
2. Palatalar faoliyatining huquqiy asoslari to'g'risidagi (3-moddalar);
3. Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazish va Senat tarkibini shakllantirish to'g'risidagi (4-modda);
4. Palatalarning vakolatlari muddati to'g'risidagi (5-moddalar);
5. Palatalarning hujjatlari to'g'risidagi (7-moddalar);
6. Qonunchilik palatasi Spikerining va Senat Raisining vakolatlari to'g'risidagi (14-moddalar);
7. Palatalar kengashlari to'g'risidagi (16-moddalar);
8. Palatalar qo'mitalarining ishini tashkil etish to'g'risidagi (19-moddalar);
9. Palatalar qo'mitalarining majlislari to'g'risidagi (20-moddalar);
10. Palatalar qo'mitalarning qarorlarito'g'risidagi (21-moddalar);
11. Palatalar komissiyalari to'g'risidagi (22-moddalar);
12. Qonunchilik palatasi va Senatnitarqatib yuborish (34⁵⁰ va 29⁵¹-moddalar);
13. Qonunchilik palatasi va Senat Reglamentito'g'risidagi (35 va 30-moddalar);
14. Qonunchilik palatasi va Senat devoni to'g'risidagi (36 va 31-moddalar);
15. Qonunchilik palatasi va Senat faoliyatini moliyaviy ta'minlash to'g'risidagi (37 va 32-moddalar);

⁴⁹Izoh: bundan buyon ham shu tartibda.

⁵⁰"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisinng Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni.

⁵¹"O'zbekiston Respubliaksi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni.

16. Qonunchilik palatasi va Senatning matbuot organlari to'g'risidagi (38 va 33-moddalar).

Aslini olganda, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida 38 ta moddadan faqat 17 tasi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining moddalariga nisbatan mazmunan alohidalikka ega. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida bunday moddalar bor-yo'g'i 12 ta bo'lib, bu ushbu qonun moddalari umumiy sonining 36,4foizini tashkil etadi. Shu tariqa, agar, umuman olgandaikkala qonun jami 71 ta moddalarga ega bo'lsa, ular bitta qonunga birlashtirilsa, takrorlanuvchi normalar istisno etilishini inobatga olganda, salkam 45 ta modda bo'lar edi.

Senat faoliyatini tartibga soluvchi keyingi hujjat "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamentito'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunidir.Qonun to'qqizta bo'limdan iborat vao'ttiz to'rtta moddani birlashtiradi.

Senatga doir huquqiy manbalar tizimida O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonuni⁵²alohida o'rin tutadi.Qonun uchta bo'limdan iborat bo'lib, 65 ta moddaniqamrab oladi. Saylovlarni moliyaviy ta'minlash manbalari va ushbu qonunni buzganlik uchun javobgarlik uchinchi bo'limda belgilangan.

Shu tariqa, O'zbekiston Respublikasida parlament huquqining shakllanish jarayoni bormoqda.U huquqning umumiy tizimidagi o'rni

⁵²O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1994. №1. 6-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1998. №3. 38-modda; 1999.№9. 206-modda; 2000. № 5-6. 153-modda.

nuqtai nazaridan bir qator obyektiv asoslarga ko'ra konstitutsiyaviy huquqning kichik tarmog'i sifatida tavsiflanadi.

Senatning huquqiy asoslari mazkur tizimda yuqori palata parlament huquqiy munosabatlarining asosiy subyektlari jumlasidan bo'lganligi bois ham, Senatning huquqiy maydonida parlament huquqi subyektlarining talay qismi tartibga solinishi sababli ham eng muhim o'rinlardan birini egallaydi. Bundan tashqari, Senat bajaradigan vazifasi, mutlaq vakolatlarining farqlanib turadigan tabiati, ishning tashkiliy shakli va shakllantirilishi tartibi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Referendum yakunlari va davlat jamiyati tashkil etishning asosiy prinsiplari", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga saylovlar to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunlar hamda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglament to'g'risida"gi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglament to'g'risida"gi qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solib turuvchi manbalardir. Qonunchilik shakllanishi jarayoni davom etayotganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risidagi bir qator yangi qonunlar takomillashtirilib, yangi qonun loyihalari ishlanishi bu tabiiy jarayon bo'lib hisoblanadi.

Xulosa

Mamlakatimizning oliy vakillik organi Oliy Majlisni ikki palatali etib shakllantirish va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddati yeti yil qilib o'zgartish taklifi bilan 2002-yili umumxalq referendumini o'tkazildi. Referendumga qo'yilgan har ikkala masala bo'yicha xalqimiz o'zining samimiy roziligini bildirdi. Natijada 2005-yildan boshlab parlamentimiz ikki palatali etib shakllanadigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A.

Karimov ta'limida qonunchi qaruvchi hokimiyat Parlamentning shakllanish va takomillashish jarayonlari, bosqichlari, maqom va vazifalari ham nazariy, ham amaliy mushtaraklikda yaxlit kvintessetsiya holida izchil uyg'unlikda kashf etildi. Professional Parlament g'oyasi mashhur "o'zbek modeli" strategik tamoyillari maqom-mundarijasi mohiyatida yaxlit mujassam bo'lgan.

Davlatimiz oliy vakillik organi ikki palatali etib shakllanishi ma'lum bo'lganidan keyin bir qator mavjud qonunlarimizga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi, yangi qonunlar qabul qilindi. Jumladan, 2003-yil "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi qonuni qabul qilindi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunning 53-moddasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, viloyat, tuman, shahar davlat hokimiyati vakillik organining saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan deputati

Senat a'zolidiga saylanish uchun nomzod bo'lishi mumkin,⁵³ - deb ko'rsatilgan.

Ushbu qoidani chuqurroq o'rganish maqsadida xorijiy davlatlarning tajribalariga nazar soladigan bo'lsak, quyidagi holatlarga guvoh bo'lishimiz mumkin. Chunonchi, Fransiya yuqori palatasi 9 yillik muddatga departamentlardagi saylovchilar kollegiyalari deputatlari, viloyat kengashlari, tuman kengashlari, munisipal kengashlar tomonidan bilvoxita ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Italiya parlamentining yuqori palatasiga 315 senator viloyatlar bo'yicha saylanadi. Shuningdek, Italiyada Senat a'zolarini saylash huquqiga 25 yoshga to'lgan fuqarolar ega bo'lib, saylanish huquqiga 40 yoshdan kichik bo'lmaslik talab etiladi.⁵⁴

Ma'lum bo'lganidek, parlamentning yuqori palatasiga saylash va saylanish Yoshi, Senat a'zolidiga qo'yiladigan talablar turlicha. Umumiy asosda olib qaraydigan bo'lsak, 18 yoshga to'lgan fuqaro saylash huquqiga egadir. Lekin ba'zi bir saylovlarda ma'lum bir yoshga to'lgan fuqarolar ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi. Masalan, Yaponiya parlamentining yuqori palatasi hisoblangan Maslahatchilar palatasiga bo'ladigan saylovlarda 20 yoshdan kichik bo'lmagan fuqarolar ishtirok etishi belgilab qo'yilgan.

Demak jahon tajribasiga ko'ra, bizning mamlakatimiz saylov haqidagi qonunchilikda qanday bajarilayotganiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Oliy Majlis Senatini shakllantirishda ma'lum yosh talab etishini ko'ramiz. Aniqrog'i, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tuman va shahar Kengashlari shakllanadigan keyin bir oydan

⁵³“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2003. 132-bet.

⁵⁴Parlamentarizm: xorijiy mamlakatlartajribasi. R.M. Alimovning umumiy tahriri ostida. “Sharq”. 2002. 165-175-betlar.

kechiktirmasdan ularning qo'shma majlislarida Senat a'zoliciga saylovlar tashkil etiladi. Demakki, yuqori palatani shakllantirishda bizda majoritar saylov tizimidan foydalaniladi. Oliy Majlis Senati a'zolarinin saylashda mahalliy Kengash deputatlari ishtirok etish huquqiga egadirlar. Tabiiyki, Oliy Majlis Senat a'zolarini saylaydigan mahalliy Kengash deputatlarining barchasi 25 yoshdan kichik emas. Bu esa davlatimizda yuqori palatani shakllantirishda o'ziga xos yo'lning tanlanganligidan dalolatdir. Zero, keng jamoatchilikni saylovlarni o'tkazishga haddan ziyod jalb etaverish ham davlatimizga va jamoatimizga iqtisodiy-ijtimoiy tomondan o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Ya'ni, parlament yuqori palatasiga saylovlar o'tkazilishi uchun alohida saylov okruglarini, saylov uchastkalirini tashkil etish zarur bo'ladi. Saylovlar esa davlatimiz byudjeti hisobidan tashkil etilishini unutmasligimiz kerak. Qolaversa, mamlakatimizda yuqori palatani shakllantirishda ishtirok etadigan mahalliy Kengashlar deputatlari ham xalq nomidan ish ko'rishadi. Yurtimizda shu tariqa vakillik organlarining nechog'lik kata ahamiyatga ega ekanligi va Senatni shakllantirishda jahon tajribalaridan o'ziga xos ravishda foydalanilganligining guvohi bo'lamiz.

Professor Murod Sharifxo'jayevning Senat a'zolarining kasbiy mahorati to'g'risidagi ilmiy tahlili bizda qiziqish uyg'otdi: "Bugungi kunda ikki palatali parlament davlatimiz jamiyati hayotida kata nufuzga ega bo'lib bormoqda. Senat yuqori palata maqomida quyi palata tomonidan tayyorlangan qonun loyihasining mazmun-mundariyasi, sifati va amaldagi ijrosi uchun mas'ul hisoblanadi. Shu sabab juda ko'p narsa Senat a'zoliciga kimlarni saylash, kimlarni tayinlashga bog'liq. Senator kata hayotiy tajribaga, zamonaviy jahoniy tafakkurga, el-yurt oldida o'bro'-e'tiborga, yuksak intellektual salohiyatga ega, qonunchilik

jarayonini yaxshi biladigan, tushunadigan shaxs bo'lishi shart. Ana shundagina quyi palata deputatlari tomonidan tayyorlangan qonun loyihalari sinchiklab, moddama-modda, birma-bir o'rganilishi, ularga jiddiy o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi, kerak bo'lsa, loyiha quyi palataga qayta ko'rib chiqish uchun qaytarilishi lozim. Buning uchun Senat a'zolari har tomonlama malakaviy yetuk bo'lishlari shart. Behudaga Fransiya Senati yoki Germaniya Bundestagi a'zolarining bir qismi oldin Fransiya Milliy Majlisi, Germaniya Bundestagi – Federal Majlisi deputatlari bo'lishmagan. Amerika Senati, Rossiya Federatsiya Kengashi tarkibi ham deyarli shunday. Bu tajribani O'zbekiston ham o'zlashtirmoqda. Oliy Majlis Senati tarkibida oz miqdorda bo'lsa-da, Oliy Majlisning oldingi deputatlari faoliyat ko'rsata boshladi",⁵⁵ - deb ta'kidlaganida jon bor, albatta.

Fikrimizcha, oliy vakillik organimizning yuqori palatasiga kelgusi saylovlarni tashkil etishda, shuningdek ularni lavozimlariga tayinlashda kamida 25 % ini ilgari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati lavozimida faoliyat yuritgan yoki kamida ikki muddat mahalliy Kengash (Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'I Kengesi, viloyat, tuman va shahar Kengashlari)larda deputat sifatida faoliyat yuritgan, qonunchilik sohasida boy tajribaga ega bo'lgan vakillarimizdan nomzodlarining ko'rsatilishi ta'minlansa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki, birinchidan, bunday kishilar o'zlarining boy tajribasi asosida o'zlarini saylagan mintaqa manfaatlarini, yuqori palataning samarali ishlashini to'la to'kis ta'minlay olishlari mumkin, ikkinchidan, Oliy Majlis Senatiga saylangan va tayinlangan a'zolarining ilgari Qonunchilik palatasi deputati yoki ikki muddat mahalliy Kengash deputati sifatida faoliyat

⁵⁵Sharifxo'jayev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. "Sharq" 2005. 35-bet.

yuritgan vakillardan ta'minlanishi orqali parlament islohotlarining bosqichma-bosqichligini ham ta'minlagan bo'lamiz.

Davlatimiz oliy vakillik organi hisoblangan Oliy Majlis Senatiga saylanayotganlarning yosh senziga ham ahamiyat beradigan bo'lsak, Aosiy Qonunning 77-moddasida ta'kidlanishicha: “ Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikkanomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi”, - deb aniq ko'rsatilgan. Demak, Oliy Majlisi Senati a'zosi etib saylanish uchun yosh senzi jihatidan olib qaraydigan bo'lsak 25 yoshdan kichik bo'lmaslik talab etiladi. Bu esa navbatida Oliy Majlis palatalrining tengligini, qonun ijodkorligi sohasida bo'ladimi, qabul qilingan qonunlar va qarorlarning ijrosining ta'minlanishi nazorati bo'ladimi – barchasida ularning yosh jihatidan ham, vakolatlar jihatidan ham tengligini yana bir bor kafolatlaydi. Shuningdek, 25 yosh normasi oliy vakillik organining yuqori palatasiga saylanayotganlarning ma'lum darajada siyosiy tajriba to'plashiga imkoniyat beradi. Bu ham yurtimizda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan biridir, chunki, statistika bo'yicha davlatimiz aholisining 64% ini o'ttiz yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi.

Demak, o'ylaymizki davlatimizning oliy vakillik organining yuqori palatasiga saylanayotgan va tayinlanayotgan vakillarimizning kamida 25% ini oldin Oliy Majlis Qonunchilik palatasida deputat sifatida faoliyat yuritgan yoki kamida ikki muddat mahalliy Kengashlar deputati sifatida ishlagan fuqarolarimizdan bo'lishini ta'minlash orqali professional,

chinakam xalqparvar va barcha demokratik tamoyiilarnin o'zida mujassamlashtirgan oliy vakillik organiga ega bo'lamiz **Axir bosh maqsadimiz ham kelajak uchun ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni hadya etishdir.**

Adabiyotlar

I. Rahbariy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Bizdan Ozod va obod Vatan qolsin. T.2. –T.: “O’zbekiston”, 1996.
2. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida. T. 6. –T.: “O’zbekiston”, 1998.
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. T.7. –T.: “O’zbekiston”, 1999.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. – T.: “O’zbekiston”, 2000.
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. –T.Yu. – T.: “O’zbekiston”, 2002.
6. Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo’lmaydi. T.13. –T.: “O’zbekiston”, 2005.
7. Karimov I.A. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining Qo’shma majlisidagi nutq.//Xalq so’zi 2005-y. 29-yanvar.
8. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. –T.: “O’zbekiston”, 2007.
9. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo’lida. T. 16. –T.: “O’zbekiston”, 2008.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. –T.: “O’zbekiston”, 2010.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “Adolat”, 2009.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Axborotnomasi. 1994. №1.3. O'zbekiston O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1998. №3. 38-modda; 1999.№9. 206-modda; 2000. № 5-6. 153-modda.
3. Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. № 4-5. 2002.
4. Jamiyat va boshqaruv jurnali. 2002-y. 2-soni. “Xorij parlamentlari”
5. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq . ²O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi Qonuni bilan kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarni hisobga olgan holda.
6. “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2003.
7. Конституционное право: восточноевропейское обозрение. 2003. - №1.
8. Конституции зарубежных государства. –М.: Издательство БЕК. – С.Х.
9. Конституционное (государственное) правозарубежных стран. –В.4-х томах. –Т.2, “Отв.ред. Б.Аю
10. “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisinng Qonunchilik palatasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni.

11. “O‘zbekiston Respubliaksi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.

III. Asosiy adabiyotlar

1. Конституционное (государственное) право зарубежных стран. Учебник. В-4х томах Тома 1-2 Отв.ред.Б.А. Страшун. –М.: Бек. 1995. 778 с.
2. Конституционное (государственное) право зарубежных стран. Учебник. В-4х томах Тома 1-2 Отв.ред.Б.А. Страшун. –М.: Бек. 1997. 764 с.
3. Jumayev R. Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo‘lida. –Т., “Sharq”, 1998-у. 4. Xalilov E. O‘zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi oliy organi. –Т ., “O‘zbekiston”, 2001.
5. Parlamentarizm: xorijiy mamlakatlar tajribasi// R.A. Alimovning umumiy tahriri ostida. –Т.: “Sharq”, 2002.
6. Qudratxo‘jayev Sh. AQSHda qonunchilik hokimiyati// Xalq so‘zi. – 2002-yil 7-mart.
7. Любимов А.П Парламентское право России. –М.: Издательство-книготорговый центр “Маркетинг”, 2002.
8. Булаков О.П. Парламентское право /Под ред. д.ю.н. проф. Ю.А. Дмитриева. –М.: Юриспруденция, 2002.
9. Muranayev S. Oliy Majlis Senati va Saylov qonunchiligi //Falsafa va huquq, 2008-yil, 3-son. HamedovI.A., HakimovI.I. Парламентское право. –Т., 2003. 10. Шамбек Г.К. К вопросу о значении двухпалатной парламентской системы. //Конституционное право, Т-2003.
11. Совет Федерации: эволюция статуса и функций / Отв.ред. Л.В.

Смирнягин. –М.; Институт права и публичной политики, 2003.

12. Шамбек Г.К. К вопросу о значении двухпалатой парламентской системм // Совет Федерации: эволюция статуса т функций / Отв.ред. Л.В. Смирнягин.

–М.; Институт права и публичной политики, 2003.

13. СмирнягинЛ.В. Институт права и публичной политики,–М.; 2003.

14. IslomovZ.M. O'zbekistonmodernizatsiyavademokratiyataraqqiyotsari. –Т., “O'zbekiston”, 2005.

15. Sharifxo'jayev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. “Sharq” 2005.